

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**  
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**"SAN'ATSHUNOSLIK" FAKULTETI**

**"TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI" KAFEDRASI**

**“Tarixiy voqeelikda Buxoro arxitektura obidalarini rangtasvirda  
aks ettirish” mavzusidagi**

## **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Bajardi: Kasb ta'limi (amaliy san'at)  
ta'lim yo'nalishi bitiruvchi 3-1ASK-16  
guruhi bitiruvchi talabasi Uroкова  
Sevara Tavakkalovna\_\_\_\_\_

Ilmiy raxbar: Tasviriy san'at va muhandislik  
grafikasi kafedrasida katta o'qituvchisi  
Bakayev Shodijon Shokirovich\_\_\_\_\_

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.  
\_\_\_\_\_ sonli bayonnomasi " \_\_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ 2020 yil

BUXORO-2020 yil

**Mavzu: "Tarixiy voqelikda Buxoro arxitektura obidalarini  
rangtasvirda aks ettirish"**

**Kirish**

O'zbekistonda tasviriy san'atning rangtasvir sohasini rivojlantirishga qaratilgan e'tibor. Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi, vaqsad va vazifalari.....9 b

**I.BOB. Qadimiy Buxoro tarixiy obidalarini tarixidan lavhalar**

1.1. Buxoro tarixiy me'moriy obidalarini haqida umumiy ma'lumot.....26 b

1.2. Rang tasvirda manzara kompozitsiyasining ahamiyati.....32 b

**II.BOB. Tarixiy voqelikda Buxoro arxitektura obidalarini rang-tasvirda aks ettirishni amalga oshirish**

2.1. Rassomlar ijodida Buxoro manzarasi.....42 b

2.2. Mavzu buyicha amaliy ishlash jarayonining borishi: eskiz, qoralama va ranglavhalar.....45 b

2.3. Kompozitsiya tanlovi.....50 b

2.4 . Moybo'yoqda ishlash texnologiyasi.....53 b

2.5. Buxoro me'moriy obidalarining tarixiy voqelikda aks ettirilgan tasvirini bajarish bosqichi.....59 b

**III.Xulosa.....61 b**

**Adabiyotlar ro'yxati.....62 b**

**Ilovalar.....68 b**

## Kirish

O'zbekiston Respublikasi mustaqillika erishgandan keyin jamiyatimizda katta xayrli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Yangi tashkil etilgan akademik lisey, kollej, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning badiiy va estetik tarbiyasiga katta e'tibor bilan qaralmoqda. Inson ijodiy faolligi uning xar tomonlama kamol topishida muhim omil bo'lib, uni estetik to'laqonliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Inson xayotiy jism va buyumlar qurshovida kechadi. Rang-barang buyum va jismlar dunyosi borliqqa go'zallik nafosat qonuni orqali qarashga undaydi.

Rangtasvir o'quv fani ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashda rangtasvir o'quv fani ham o'zining keng imkoniyatlari bilan aloxida ajralib turadi. Rangtasvir fani ijodiy faoliyati san'atkorning dunyosini, borliqni, uning go'zalligini ranglar orqali ko'rish va tasavvur etish, xaqiqiy san'at asarini qadrlashni o'rgatadi. Bu fanning bosh maqsadi – talabalarda badiiy madaniyat va badiiy fikrlash tafakkurini yuksaltirish hamda ijodiy faoliyatni tarbiyalashdan iboratdir. Rangtasvir o'quv fani o'z oldiga qo'yilgan vazifalar quyidagilardan iborat:

- atrof muhitdagi ranglarni ko'ra olish va ularni idrok etishga o'rgatish.
- badiiy qobilyat, did va fikrlash faoliyatini o'qitish.
- rangtasvirning nazariy asoslari: nur-soya, rangshunoslik, perspektiva va fazoviy tasavvurni o'stirish, shuningdek rangtasvir san'atining turlari, janr, oqim, atama va iboralari xaqida tushuncha berish.
- rangtasvir asarlarini o'qiy olish va rang ko'rish malakasi, ko'nikmalarini rivojlantirish.
- talabalarni turli kasb-xunarga yo'naltirish va vatanparvarlik, avvlambor milliy va umuminsoniy qadryatlarga hurmat tuyg'usini tarbiyalash.

Rangtasvir o'quv fanini o'rgatish barcha umumta'lim va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq xolda amalga oshiriladi.

Rangtasvir – tasviriy san'atning shunday shunday bir turidirki, unda rang eng asosiy o'rinni egallaydi.

Biror yuzada bo'yoqlar vositasida bajarilgan san'at asari rangtasvir deyiladi.

Rangtasvir amalda yo'nalishiga ko'ra maxobatli, dastgoxli, miniatyura, teatr rangtasvir bezagi kabi turlarga bo'linadi. Rangtasvir yo'nalishlarining xar biri maxsus xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Bu-bajarish uslubi, shuningdek badiiy obraz talablariga ham tegishlidir.

Rangtasvir obrazlari nihoyatda jiloli va xar biri o'ziga xos. Musavvirlar rangtasvir vositalari ko'magida asar yaratadilar va xar doim chizmatasvir, kompozisiya imkoniyatlaridan foydalanadilar. Demak, rangtasvirda asosiy ifoda vositasi rang bo'lib qolaveradi.

Rangtasvir murakkab aql-zakovati, tafakkurini, tabiatda sodir bo'lib turadigan katta-kichik o'zgarishlarni, uzluksiz falsafiy g'oyalar va fantastik obrazlarni ta'sirchan ifodalashga qodir. Xodisa, voqea va ko'rinishlar doirasining to'laligi turli yo'nalishdagi janrlar orqali ochib beriladi.

Rangtasvir tarixi ibtidoiy odamning g'or devorlariga chizgan rasmlaridan boshlanadi.

Yuksalish davrida ulkan mafkuraviy durdonalar to'plangan.

O'zbekiston xududida qadimgi rangtasvir san'ati o'ziga xos boy namunalarga ega.

Siz tasviriy san'at janrlari bilan boshlang'ich kurslarda tanishgansiz. Shuning uchun bu yerda ularning qisqacha tavsifi beriladi. Agar bu xaqda ko'proq bilimga ega bo'lishni istasangiz, qo'lingizdagi ma'ruza matni oxirida keltirilgan maxsus adabiyotlarga murojat qilishingiz mumkin.

Musavvir rangtasvir vositalari ko'magida betakror ijodiy asarlar yaratib, bizni xayratga soladi, dilimizga quvonch bag'ishlaydi, turli kechinmalar orqali ruximizni oziqlantiradi va o'z maxorati bilan sirli fikrlariga oshno qiladi.

Rang tabiatda mavjud barcha narsalar shakllarini, atrof-muhit go'zalligini, turli kayfiyat va his-tuyg'ularni ifodalay oladi. Rangni tulicha idrok qilish mumkin., uning vositasida fikr yuritish, loyixalash, konstruksiyalar qurish imkoniyatlari mavjud. «Rang» va «Bo'yoq» tushunchalarini farqlash uchun rangshunoslik asoslarini o'rganmoq zarur. Rangtasvir uchun kerak bo'lgan rangni palitrada bo'yoqlarni bir-biriga qorishtirish yo'li bilan tayyorlab olinadi. So'ngra musavvir

tekislik yuzasida ranglar majmuini uyg'unlashtirgan xolda koloritni keltirib chiqaradi. Yagona «Rang» so'zi rangtasvir jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi va san'atning bu sohasida asos vazifasini bajaradi.

Tasavvur qiling, atrof-muhitda barcha ranglar yo'qolib qoldi-yu, biz uni oq-kulrang tusda ko'rayotgan bo'laylik. Qanchalik g'amgin, zerikarli, biz ko'nikmadan manzara kelib chiqadi. Shundagina xayotda rangning qanchalik ahamiyatga ega ekanligini payqab qolamiz.

Har bir narsa o'z rangiga ega. Ba'zi narsalarni uning rangi orqali taniymiz. Kattaligi bir xil bo'lgan aylana shakldagi 3 ta narsani ko'z oldingizga keltiring. Biz ularni o'ziga xos ranglarga bo'yab, olov rang apelsin, qizil pomidori yoki och yashil olmaga aylantira olamiz. Rang meva-chevalarning pishganligi yoki yam-yashil daraxtlarning sarg'ayib, qizarib borayotgani va kuzni kirib kelganligidan darak beradi. Xatto xavo qatlami, uzoqdagi o'rmon yoki tog'larni rang-barang bo'yoqlarda bo'yab, bo'shliqdagi mo'ljalni topish imkonini beradi. Kunning turli vaqtlarida charaqlagan oftob rangidan yerni ko'k, suvlar rangi o'zgarib ketadi. Kunning g'ira-shira paytida yashil rang tovlanib ko'rinadi, qorong'ulik tushganda esa qizil, pushti ranglar to'qlashadi, ko'k, yashil ranglar och tusga kiradi.

Olamning go'zalligi, buyumlar shakli va jismni, bo'shliq va yorug'likni rang vazifalari orqali ko'ra olamiz. Rang biz kuzatib, his qilgan buyumning asosiy belgilaridan biridir.

Xayotbaxsh tabiatning rang-barang fasllari o'ziga xos ravishda bizni shod etadi. Yil fasllarini xar biriga xos bo'lgan o'z ranglari bor. Baxorniki nozik, yozniki shirali, kuzniki charaqlagan va qishning jarangsiz ranglardan siz ranglaridan did bilan tanlov o'tkazishingiz mumkin. Ijodiy ishlaringizda rang uyg'unligini qoidalariga amal qilsangiz chizgan suratlaringiz xaqiqatdan ham chiroyli chiqadi.

Tabiiy sharoitda ko'rinayotgan ranglar odatda spektr ranglari aralashuvi natijasi deb qaraladi. Rang birikmalarining asosan uch usuli mavjud. Bu optik, fazoviy va mexanik birikmalardir.

Ranglarning optik birikmalari yorug'likning to'lqinlanish xususiyatiga asoslanadi. Sektorlari kerakli ranglarga bo'yalgan doirani juda tez aylantirish yo'li

bilan bu birikmani hosil qilish mumkin. Ranglarning optik birikmalarini tajribada ko'rish uchun maxsus pirildoq yasab , amalda sinab ko'rish mumkin. Prizma yorug'likning oq nurini asosiy spektr ranglariga bo'lib yuboradi, pirildoq bu ranglarni aralashtirib, qaytadan oq ranga aralashtiradi.

«Rangshunoslik» fanida ranglar fizik xususiyat deb qaraladi. Ranglarning optik va fazoviy birikmalari mexanik birikmadan farq qiladi. Optik birikmada asosiy ranglar - qizil, yashil va ko'k bo'lsa, mexanik birikmada-qizil, ko'k va sariqdir. Ranglarni optik biriktirish yo'li bilan ko'p rangli tasvir keltirib chiqarish tajribasini ham o'tkazish mumkin. Uchta yoritgichga rangli filterlar (qizil, ko'k, yashil) taqiladi va oq ekran yuzasida nurlar bir nuqtadan tutashtiriladi. Natijada siz sirkada ko'rgan ranglarning barchasi paydo bo'lganini ko'rasiz. Ranglarni optik biriktirishning murakkab moslamalari mavjud. Ulardan biri televizor.

Ma'lum bir masofadan unchalik katta bo'lmagan va bir-biriga tegib turgan uchta rang bo'lagi kuzatilganda ranglarning fazoviy birikmalarini ko'rish mumkin. Masofada ranglarning birlashuvlari insonning ko'z tuzilishida rang ajrata olish xususiyati bilan bog'liq bo'lib, optik birikuv qonuniyatlari asosida sodir bo'ladi.

Musavvir har bir asarni yaratish jarayonida, ranglarning fazoviy birikuvlarini nazarda tutmog'i va bu asar, albatta, ma'lum bir masofadan tomosha qilib, kuzatishini hisobga olmoq zarur.

Ma'lum masofadan qaralayotgan tasvirda hilma-xil rangli mayda surtmalar, kuzatish jarayonida bir-birlariga qo'shilib, yaxlit rang bo'lib ko'rinadi.

Ranglarning mexanik birikmalari-biz bo'yoqlarni palitrada, qog'ozda, mato yuzasida aralashtirganimizda sodir bo'ladi. Bunda rang va bo'yoqlarning bir xil narsa emasligini aniq va ravshan bilish kerak. Rang optik (fizik), bo'yoq esa ximik xususiyatlarga ega.

Ranglar tabiatda biz kashf etib to'plagan bo'yoqlarga nisbatan bir muncha ko'pdir. Bo'yoqlar rangini ko'pchilik narsalarning rangiga nisbatan kam taminlangan. Eng och bo'yoq eng och bo'yoq oq, eng to'qlik qora bo'yoqqa nisbatan atigi 20-30 marotaba yorqinroqdir. Rangtasvirda ranglarning go'zal birikmalaridan kelib chiqib, turli bo'yoqlar yordamida bir rangni yoki bir bo'yoq

bilan bir necha rangni ifodalash mumkin. Agar har bir ranga qora bo'yoqdan oz-ozdan qo'shilsa, jozibali natijalarga erishish mumkin.

O'zbekiston deganimizda ko'z oldimizga,avvalo,necha ming yillik tarixga ega bo'lgan,o'zining tengsiz madaniy yodgorliklari bilan dunyo e'tiboriga sazovor bo'lgan jannatmakon bir o'lka keladi.O'zbek xalqining tarixida me'morchilik san'ati madaniy merosimizning asosiy qismini tashkil etadi. O'zbek diyorida vujudga kelib, gullab yashnagan shu san'at turi bemisil va betakrorligi bilan dunyoga mashhurdir.

Milliy,madaniy meroslarimizni asrab-avaylash biz yoshlarning asosiy burchlaridan biri hisoblanadi.Yoshlarini milliy qadriyatlarni hisobga olgan holda zamonaviy ruhda tarbiyalash, insoniy fazilatlarga ega bo'lgan zamon talabiga javob beradigan kasb sohiblarini tayyorlash muammosi davlat miqyosidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.Ta'lim-tarbiya berishda ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan, butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib me'moriy yodgorliklarimizni,muqaddas qadamjolarini ziyorat qilish uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilgan.Biz Buxoroning betakror yodgorliklari haqida so'z ochar ekanmiz,avvalo,tarixiy Buxoro haqidagi bilimlarga ega bo'lishimiz kerak.

**Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi:** Yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng davlatimizdagi har bitta tarixiy va madaniy yodgorlikka bo'lgan e'tibor kuchaydi.Aniqsa Buxoro, Samarqand, Xorazm, Xiva, Shahrisabz, G'ijduvon kabi shaharlarha alohida restovratsiya ishlari olib borildi. Buxoro qadimda xonlik bo'lgan, shuningdek Shayboniylar sulolasi davrida poytaxt darajasiga ko'tarilgan. Hukmdorlar o'z qudratlarini namoyon etish maqsadida muhtasham binolarni barpo ettirishgan. Toj-u taxt uchun kurashlardan so'ng bugungi to kungacha inshootlarning kam qismigina qolgan. Qadimiy Buxoro kamida 2500yillik tarixiy shahardir. Shuning boisikim bu shahar yodgorliklari YuNESKO tashkiloti tomonidan himoyaga ham kiritilgan.

Aynan shu qadimiyligimizni chuqur o'rganish.Uning bejirim ko'rinishini rangtasvirda ishlash bilan birga tarixni ham his qilishdir.Tariximizni qancha chuqur

o'rgansak kelajakda ham shuncha yangi, ya'ni hali o'rganilmagan qanchadan-qancha madaniy yodgorliklarimiz borligiga amin bo'lamiz.

**Muammoning o'rganganlik darajasi.** Yoshlarning ta'lim-tarbiyasi har qanday jamiyatning, davlatning, millatning kelajagini belgilaganligi uchun xalqimiz azal-azaldan o'z avlodining an'alariga, urf-odatlariga sodiq holda shakllanishiga e'tibor berib keladi. Yoshlarni ilmga, kasb-hunarlariga, birorta foydali mashg'ulotlarga o'rgatib borish, xalqning urf-odatlari, rasm-rusumlari, aqidalarini hurmat qilish, an'alariga hurmat, vataniga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda mehnatsevarlik, insonparvarlik, mehmondo'stlik xislatlarini shakllantirib borish xalqimiz orasida ulug'lanib kelayotgan keng miqyosdagi ustoz-shogirdlik odatlaridan hisoblanadi. Ustoz o'gitlariga amal qilish, uni hurmat qilish, nasihatlariga quloq solish ham yosh avlod tomonidan bajarilishi singdirib borilgan. Ushbu ta'limiy-tarbiyaviy fikr-mulohazalar, shogirdlar shakllanishida ustozning o'rni, ustozlar fazilatlari, ilm, kasb-hunarlar o'rganish va o'rgatishning afzalligi juda ko'plab tarixiy meroslarda, manbalarda bayon etilgan. Tarixiy jarayonlarda asosiy qismlari yo'qolib ketgan bo'lsa-da hanuzgacha madaniy taraqqiyot uchun xizmat qilib kelayotgan toshbosma va xatbosma qo'lyozmalar turli xil me'moriy obidalarga, buyumlarga bitilgan bitiklar, qadimiy yozuvlar, xalq yozma va og'zaki ijodi, amaliy, tasviriy va musiqa san'ati va boshqa turli xil adabiy manbalar ham xalqning qadimdan ta'lim-tarbiya, ustoz - shogirdlik an'analari bilan shug'ullanganligidan yaqqol nishonadir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda tadqiqot mavzusini *“Tarixiy voqeilikda Buxoro arxitektura obidalarini rang-tasvirda ifoda etish”* deb nomladik.

**Tadqiqot maqsadi:** ushbu bitiruv malakaviy ishni yozishdan asosiy maqsad qadimiy va boy madaniy yodgorliklarimizni tasviriy san'at orqali keladigan sayyohlarga tanishtirish va hozirgi davr talabi bo'lgan turizmni va shunga o'xshash sohalarni yanada keng talqinda rivojlantirishga o'z hissamni qo'shishdir. Hozirgi kunda tasviriy san'at va amaliy san'atga bo'lgan qiziqish dunyo miqyosida tobora ommalashib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan bizga juda ko'plab imkoniyatlar yaratib berilgan va berilmoqda.



Xususan hunarmandchilikka boʻlgan eʼtibor alohida. Chunki aynan hunarmandchilik orqali bizning amaliy sanʼatimiz necha ming yillardan buyon oʻz jozibadorligini saqlagan holda **“ustoz-shogird”** anʼanasi asnosida bizgacha yetib kelmoqda. Amaliy sanʼat asarlarimizni dunyoga tanitish, Oʻzbekioston degan nomni butun yer yuziga tanitish ham biz yoshlarning qoʻlimizdadir .

Yurtboshimizning tashabbuslari bilan 2019-yilda Qoʻqon shahrida **“Butunjahon hunarmandlar festivali”** tashkil etildi.Ushbu festivalda dunyoning barvha mamlakatlaridan eng sara hunarmandlar oʻz ijodlaridan naʼmunalar koʻrsatishdi. Alohida shuni taʼkidlash joyizki ,bizning amaliy sanʼatimiz oʻzining betakrorligi va bejirimligi bilan ajralib turadi.

Maqsadim mana shunday dunyo miqyosida boʻlib oʻtadigan, turizm sohasini yanada rivojlantiradigan harakatlarni amalga oshirish va yurtimning gullab-yashnashiga ulkan hissa qoʻshishdir.

**Tadqiqot obʼekti:** Bitiruv malakaviy ishning mavzusidan kelib chiqqan holda tadqiqot obʼektlariga Buxoroning qadimdan to hozirgacha saqlanib kelinayotgan tarixiy obidalaridan Ark, Chashmai Ayub , Sitorai Moxi Xossa, Bahouddin Naqshband, Labi Hovuz, Ismoil Samoniy, Chor Bakr kabilarni olsak boʻladi. Bundan tashqari mana shu obidalarda saqlanib qolingan va hozirgi kunda muzey eksponati boʻlib turgan rassomlarning asarlarini ham obʼekt sifatida olam

## **I BOB. Qadimiy Buxoro tarixiy obidalari tarixidan lavhalar**

### **1.1. Buxoro tarixiy meʼmoriy obidalari haqida umumiy maʼlumot.**

Meʼmorlik - kishilik jamiyatining eng qadimiy ilmiy, amaliy va mada-niy faoliyati boʻlib, u inson kamolotining yorqin yoʻlini ifoda etadi. Meʼmorlik - asosan uy-joy qurilishi bilan bogʻliq boʻlib, uning qonun-qoidalarini va tarixiy-taraqqiyotini oʻrganuvchi fandır. Maʼmorlik kishilik jamiyatini ijtimoiy-maishiy, gʻoyaviy-badiiy ehtiyojlariga xizmat qiladigan, turar-joy va mehnat faoliyati uchun bino-inshootlari qurilishidan iboratdir. Meʼmorlik kishilik jamiyati shakllanishi bilan paydo boʻlib, u bilai birga rivojlandi, takomillashdi, jamiyat oʻzgarishi bilan oʻzgardi, u shakl-mazmun

va xarakter jihatidan takomillashdi, asrlar osha o'z mazmuni bilan jamiyat talabiga javob berib keldi .

Insoniyat endi shakllanganda oddiy g'or va chaylalardan boshlagan me'morlik ilmi o'z boshidan ibtidoiy, quldorlik, feodalizm, kapitalizm, sotsializm jamiyatlarini kechirib, o'ziga xos tartibda rivojlanib keldi. Bu davrlar me'morlik san'ati taraqqiyoti natijasida Misr ehromlari, Misopotamiya piramidalari, Yunon akropollari, amfiteatrlari, ibodatxonalari, Rim gumbazlari, ravoqlari, Samoniy, Amir Temur maqbaralari, Samarqand registonlari, Fransuzlarning Reymee sobarlari, Hind Tojmahali va Moskva kremli ansambllari dunyoga keldi. Bu obidalar o'rtz asrning roman, gotika, doriy, ioniy, korinf orderlarini, karniz, friz, kapiteli, kolonna, baza kabi me'morlik kategoriyalarini yaratib, bular jahonning buyuk, me'morlik obidalarini yaratishning asosiy elementlari bo'lib xizmat qildi.

O'rta asr me'morchiligi o'ziga haykaltaroshlikni va devoriy rangtasvirni olib kirdi. Oddiy loy va xom g'ishtlar bilan boshlangan me'morlik materiallari pishiq g'ishtlar, koshinlar, tosh va marmar plitalargacha ko'tarilib bordi. Jahon me'morlik san'atida yaratilgan bino va inshootlarni o'z hajmini kengaytirish bilan birga, u balandlikka va er tubiga ham o'sib bordi. Osmono'par binolar bilan birga yuz metr gacha bo'lgan chuqurlikdagi er osti qasrlari (metropolitenlar) XIX-XX asr me'morchiligining buyuk taraqqiyot yillari bo'ldi.

O'rta Osiyo me'morchiligi qariyb, 3000 yillik tarixiy-taraqqiyot yoshiga ega bo'lib, u ham oddiy loy, paxsa, xom g'isht, yog'ochlar bilan boshlanib, jahonning eng go'zal obidalarini, shaxarlarini (Oltintepa, Namoztepa, Jonbosqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Tuproqqal'a, Teshikqal'alari, Ko'xna Urgench, Afrosiyob, O'tror, Buxoro, Samarqand, Xeva, Varaxsha kabi shaharlari) dunyoga keldi. Ularda me'morlikni eng nodir uslub va qoidalari ishlatildi. Geometrik tushunchalar, ritm, ohang, proporstiya, kompozistiya kabilarni Abu Nasr Forobiy (873-950) me'morchilikda qo'llanishi haqida bundan qariyb 1000 yil avval o'zining qonun-qoidalarini yaratib berdi. Me'morchilikning geometrial qonunlari haqida Forobiy 10 ta kitobdan iborat asari uzoq yillar Evropada me'morlar uchun qo'llanma bo'lib keldi. Me'morlik ilmi O'rta Osiyoda ancha yillar muqaddam fan sifatida boshlangan. Ammo qurilgan obidalarining me'morlarining nomi va familiyasini

yozdirishmagan. Lekin bechora me'morlar o'z nomlarini o'z asarlari mazmuniga singdira olganlar. Ular mutaxassis nazariyotchi-me'morlar ilmi bilan asta aniqlanmokda.

Buxorodagi Kalon minorasini Usto Baqo tomonidan 1127 yilda qurildi. Jarqo'rg'on minoraoini 1108 yili me'mor Ali Seraxoiy tomonidan qurilgan. Shaxrisabz Oqsaroyini Muxammad Yusuf 1400 yilda, Gur Amirni Muhammad Isfaxoniy kabilar va umuman o'rta asr o'zbek me'morchiligida Shamsiddin, Zaynidlin Buxoriy, Badiriddin Samarqandiy, Ali Nafasiy, Ustod Faxrali, Yusuf Sheroziy, Usta Siddiq kabi me'morlar katta ijod qildilar.

Sho'rolar davrida O'zbekiston me'morchiligini asosan Rus me'morlari olib bordilar. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Namangan, Buxoro kabi shaharlar me'morchiligida hozirgi zamon me'morchiligi yutuqlari qo'llanildi. Bu davrda Evropa me'morchiligi ta'siri ancha kuchli bo'ldi. So'nggi yillardagina milliy uslublar qo'llanila boshlandi .

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy me'morchiligimiz qayta tiklana boshladi. Mamlakatimizning shahar va qishloqlarida bunyod etilayotgan ko'p qavatli binolar o'z chiroyini o'zbek milliy me'morchilik an'analari bilan namoyish eta boshladi. Mustaqillik yillarida R.Shokirov, Yu. Xoldaev, A.Turdiyev, R.Yoqubov, F.Tursunov, V.Akopdjanyan, N.Valieva, N.Bandeladze kabi me'morlar ijod qilmoqdalar.

Buxoro birinchi tarixchilar yozib koldirgan afsonalarga ko'ra Siyovush tomonidan kurilgan. Keyingi davr afsonalariga kura turk aeliga uylangan eron shoxining ugli Sievush Turon shoxi Afroeb tomonidan uldirilgan. 6 asrda shaxar sugdcha nom bilan Numijgat, 7-8 asrlarda Puxo, Buxo, Buge deb yuritilgan. 7 asrning ikkinchi yarmida arablar Urta Osiega bostirib kirishdi jumladan 674 yilda Ubaydulla ibn Zied Buxoroni egalladi. 709 yilda Kutayba ibn Muslim tomonidan istilo kilindi, u paytda shaxarda 4 ta darvoza bor edi. Keyinchalik 7taga etdi. 8-9 asrlarda Buxoroda katta uzgarishlar bulib, 849-850 yillarda shaxar 11 darvozali devor bilan urab olindi. IX asrda Ismoil Samoniy tomonidan feodal davlat tuzildi. IX-X asrlarda Yakin va O'rta Sharkda asosiy shaxarlardan biriga aylandi. Bu davrda ijod qilgan 30 ga yakin shoirlar nomi tarixda saklangan. Abdulla Ja'far Rudakiy, Abu Ali Ibn Sino shular jumlasidandir. 1220 yilda

Buxoro Chingizxon tomonidan zabt etildi. 1370 yilda esa Temur imperiyasi sostaviga kirdi. 14-15 asrlar mobaynida diniy markaz vazifasini bajardi. Ulugbek tomonidan 1413-1433 yillar mobaynida kurdirilgan madrasalar diniy e'tikod bilan emas, balki uning olim sifatida madaniy okartuv faoliyati bilan boglikdir. 16-17 asrlarda shaxarda me'morchilik ansambillari kurila boshlandi. Buxoro- jaxonning eng qadimiy shaharlaridan biri. Bu shahar ko'plab sayyoxlar e'tiborini tortgan mashhur qadimiy arxitektura yodgorliklariga boy. Bu erda qariyb 140 arxitektura yodgorligi saqlanib qolgan. Buxoro qadimiy Sharq shahri qiyofasini Markaziy Osiyoning boshqa har qanday shahridan ko'ra ko'proq saqlab qolgan. Buxoro-O'rta Osiyo me'morchiligining ming yillik tarixi va asosiy rivojlanish bosqichlarini aks ettirgan chinakam yilnoma. Shahardagi har bir yodgorlik o'z sukunatida olis o'tmish sirlarini saqlaydi.

Bu ajoyib shaharning yoshi ming yillar bilan o'lchanadi. Olis o'tmishda Buxoro hududidan o'sha davr uchun muhim bo'lgan xalqaro savdo-iqtisodiy yo'llar, eng avvalo, Buyuk ipak yo'li o'tgan. Keng rivojlangan savdo almashuvi Buxoro shahri ho'jaligining, shuningdek, yo'llar o'tadigan hududlarning rivojlanishiga imkoniyat yaratgan. Buxoroni xaqli ravishda "sharaf manzili", "saltanat Ka'basi" va "mashhur kishilar to'planadigan joy" deb atashgan. Qadimiy Buxoroning ziynati va nodirligi uning betakror arxitektura yodgorliklaridadir.

Buxoro bir qancha asrlar davomida Turkiston shaharlari o'rtasida etakchi mavqeni egallab turdi. Bu davrda hunardmanchilik, savdo, qurilish san'ati, fan, adabiyot, san'at ravnaq topdi. Buxoroda madaniyat yodgorliklari ko'p bo'lib, ular Buxoroni muzey-shahar deb atashga huquq beradi.

Buxoroning markazida qadimiy qal'a- ark qad ko'targan. U muzey-shaharning eng ko'hna arxitektura yodgorligidir.

### ***Ismoil Somoniy Maqbarasi***

Musulmon sharqining ajoyib yodgorligi- Ismoil Somoniy maqbarasi uzoq yillar davomida saqlanib, bizning kunlargacha yaxshi xolda etib keldi. Unda ilk o'rta asrlar me'morchiligining eng yaxshi yutuqlari o'z aksini topgan. Bu maqbara kompozistiyasining rang-barangligi bilan kishini hayratga soladi va haqli ravishda Sharq durdonasi hisoblanadi. Somoniylar maqbarasi taxminan 864-868 yillarda barpo

qilingan. Somoniylar davlatining asoschisi Ismoil Somoniy va uning avlodlari maqbarasi bo'lgan. Ismoil Somoniy maqbarasi, 4 tomoni bir xil chordara shaklida, jim-jima g'ishtin bezaklari chiviqli to'siq yoki qamish, bo'yra to'qimasini eslatadi. Devor qalinligi- 1,8 m, tarhi: tashqarisi - 10,80 x 10,70m, ichkarisi - 7,20 x 7,20m. Usti gumbaz bilan qoplangan, 4 burchagi ustunsimon shaklda ishlangan, gumbaz atrofiga 4 kubba o'rnatilgan. Devor tepasida kungirasimon darchalar bor (40ta). Har bir darcha hoshiyalangan. Ravoq tepasidagi qanos g'ishtin tangachalar marjoni bilan chegaralangan. Ikki chetida mayda g'ishtdan chorsi tumor yasalgan. Bino ichkarisi tashqaridagi bezak bilan uzviy bog'liq bo'lib, uslub jixatdan bir xil. Ichki devor gumbaz osti bag'alidagi ustma-ust ravoqchalar ustunchalarga tayangan. Ravoqchalar 8 qirrali gumbaz asosini tashkil qiladi. Qirralar burchagiga gumbazga tirgaklik qiluvchi ustunchalar ishlangan. Arxeologik qazilma vaqti (1927 y.)da xona sahnida 2 yog'och sag'ana borligi aniqlangan. Yozma manbalar va rivoyatlarga ko'ra, maqbarani Ismoil Somoniy otasi Ahmad ibn Asadning qabri ustiga qurdirgan. Sharq tomondagi sag'ana Ismoil Somoniy qabri (849-907 y.) deb taxmin etiladi.

Narshaxiy "Buxoro tarixi" kitobida Ismoil Somoniyning o'g'li Amir Ahmad (914 y.) o'z qullari tomonidan o'ldirilgan va mazkur maqbaraga qo'yilgan deb yozadi. M.Saidjonov topgan Vaqfnoma (868 y.)da zikr etilishicha otasi amir Axmad ibn Asad mozoridan Registongacha bo'lgan erlarning bir qismi maqbaraga vaqf etilgan. Ismoil Somoniy maqbarasi O'rta Osiyo me'morligi va san'ati tarixidagi dastlabki maqbaralardan. Uning tuzilishida qadimiy sug'd me'morligining an'analari saqlanib qolgan buyuk me'moriy asardir.

1934 yilda V.Vyatkin boshchiligida arxeologik tekshiruvlar olib borilgan. Ismoil Somoniy maqbarasi loyixasidan tortib, xajmiy tuzilishicha geometrik tartib va qoida asosida yaratilganligi aniqlandi.

### ***Masjidi Kalon***

Masjidi Kalon - me'moriy majmuasi ansambli tarkibiga kiradi. Ushbu jome masjid Buxoroning ko'p asrlik tarixi guvohi bo'lib qolgan. Juma namozi paytida uning gumbazi ostida minglab musulmonlar to'planardi. Buxoro axolisi musulmon diniga murojaat etgan paytlari Qur'on suralarini fors tilida o'qigan bo'lib, arab tilini

o'rgana olishmagan. Shu bois masjidida aloxida tayinlangan ruhoniylar namoz o'qish shartlariga o'rgatardi. Vaqt o'tishi bilan musulmon diniga sig'inuvchilar ko'payib, masjidga borgan sari sig'may qolishgan. Shu bois 770 yili shahar va qal'a o'rtasida gumbazli masjid barpo qilindi. Narshaxiyning «Buxoro tarixi» kitobida yozilishicha Ramazon oyining jumalaridan birida masjid binosi birdaniga qulab ketgan va ko'plab odamlar vayrona ostida qolishgan. Bino qayta tiklandi, lekin «qibla» tomonidagi devori qayta qulab ketdi. Keyingi masjid qurilishi besh yil davom etdi. Buxoro xonlari orasida ichki urush boshlangan mahalda masjid binosi, ko'pgina qismlari yog'ochdan ishlangani bois, yonib ketgan. Buxoro taxtiga o'tirgan yangi hukmdor Shams-ul-Mulk qarori bilan 1068 yilda yangi masjid qad ko'tardi. 1121 yilda esa Arslonxon buyrug'i bilan gumbazli masjid Minorai Kalon yaqiniga ko'chirildi. Chingisxon qo'shinlari bosqinchiligi shaharning ko'p asrlig tarixida eng og'ir va dahshatli davr bo'lgan. Tarixchi Rashid ad Din bu haqda bunday deydi: "... Mo'g'ul askarlari bilan birgalikda u (Chingisxon) Buxoroga kirdi. Juma masjidning guzal binosi, katta dabdabali qurilma uning ko'ziga tashlandi va, birinchi bo'lib, masjid minbari oldida to'xtadi. Chingisxon –«Bu shohning qasrimi?»- deb so'radi. Unga- «Bu xudoning uyi» –deb javob berishdi. Shunda u otdan tushib, minbarga chiqdi va shunday dedi: -«Dala o'rilgan, otlarimizga em bering». Vahshiy mo'g'ullarning talon-tarojiga berilgan ruxsatdan keyin, Buxoroga qanday ochko'zlik bilan tashlashganligini tasavvur qilish oson. "... Nafaqat barcha uy-joylar va buyumlar sindirildi, ulkan boyliklar talon-taroj qilindi, Qur'onlar yirtilib, somon o'rniga yuk tashuvchi hayvonlarning oyog'i ostiga tashlandi. Muxtaram shayxlar bazm qilayotgan askarlarga xizmat qilishlari kerak edi, aks xolda mo'g'ullarga kulgi bo'lishlari kerak edi. Ruhoniylar, xizmatkorlarga o'hshab, otlarga qarashlari kerak edi. Toptalgan masjid, yong'indan qolgan yagona bino, mo'g'ullar vahshiyligining timsoli bo'lib qoldi...".

Donishmandlarning aytishicha, hamma narsa o'tkinchi. Bu shafqatsiz davr ham o'tib ketdi. Xozirgi kunlarga saqlanib qolgan Masjidi Kalon XP asrdagi qadimiy imorat qoldiqlari ustiga XIV-XV asrlarda qurila boshlanib, XVI asr boshlarida ta'mir etilgan (masjid hovlisi va atrofida olib borilgan arxeologik tekshirishlar natijasida aniqlangan). Masjid to'g'ri to'rtburchak tarhli (127x78 m), keng hovli atrofini gumbazli

bostirma ayvon egallagan. 288 kubba (gumbazcha) 208-ta ustunga tayangan. Ular o'ziga xos mahobatli ko'rinishga ega bo'lib, ustunlarga keyinchalik murabba tarhli poyustunlar o'rnatilgan. Hovlining to'rt tomoni markazida naqshinkor peshtoqlar bor. Sharqdagi tashqi ulkan peshtoq mahobati va muhtasham bezagi bilan alohida ajralib turadi. Masjidi Kalonning tashqi 7-ta eshigi bo'lib, asosiy sharqiy darvoza oldida va ichida keng ayvonlar joylashgan. Peshtoq ravog'idagi boloxona va uning yon tomonidagi qirrali ravorqlar koshin va sirlangan g'ishtlar bilan bezatilgan. Ayniqsa, ganchkori ravoqlar alohida ajralib turadi. Peshtoq orkali hovli to'ri (yuqorisi)dagi xonaqoh-maqsurga o'tiladi. Oygumbazi baland, moviy gumbazi uzoqdan ko'zga tashlanib turadi. Ichki gumbaz osti bag'allariga «qolibkori» uslubida qator mayda ravoqcha (16ta)lar ishlangan, mehrob bezaklari nafis koshinorlik san'atining yuksak namunasidir, unda usta Boyozid Purodiy nomi va «1514 yil» sanasi qo'rsatilgan.

### *Varaxsha*

Varaxsha... Bu qadimiy shaharning nomi arxeolog, restavrator, turist va ulkashunoslarning diliga va ongiga ko'p narsadan habar beradi.

Varaxsha va uning atrofida arxeolog V.A.Shishkin boshchiligida (1937-39, 1947-54 yillarda) keng qo'lamda arxeologik tadqiqotlar olib borilgan. Shu paytdan boshlab dune ulkan qimmatga ega bo'lgan badiiy asarlar haqida xabardor bo'ldi.

Varaxsha - qadimiy shahar harobasi. Buxorodan 40 km shimoliy-g'arbda, dashti Urganji ko'lining qadimiy Rajfandun vohasida joylashgan. Varaxsha maydoni 9ga va balandligi 10-20 m.li ulkan tepa shaklida saqlangan.

Arxeologik qazilmalardan ma'lum bo'lishicha Varaxsha miloddan avval P asrda bir-biriga tutashgan bir nechta istehkomli qishloqlar tarzida qad ko'targan. Varaxsha xarobalarining shimoliy-g'arbida qadimiy qurg'onlardan birining tashqi devori hamda yarim doira shaklidagi burji (ichki sahni 4,5x 5 m) kavlab o'rganilgan. Devor (qalinligi 1,8-1,0 m) xom g'ishtdan ishlangan. Devor va burjlarida paykonsimon nishon tuynuqlari (ichki tomoni 38-40 sm, tashqarisi -75-80 sm) ochilgan. Istag'firiyy va Ibn Havkal ma'lumotlari ko'ra Buxoro va Xorazm oralig'idagi karvon yo'li Varaxsha orqali o'tgan

Xar o'n besh kunda Varaxshada bir kunlik, yil ohirda yigirma kunlik bozor sayli (Navruz koshavarzon, ya'ni dexkonlar yangi yili) o'tkazilgan (Narshaxiy). Buxorxudotlar qarorgohi qilinishi bilan Varaxsha yirik shaharga aylandi. XI-XP asrlarda uning xududi eniga 6 km.dan ziyod bo'lgan. XIII asrda Varaxsha vohasidagi hayot to'satdan no'malum sabablarga ko'ra to'xtab qolgan.

1937-54 yillar davomida Varaxsha tarixi va me'morligi o'rganildi va kuyidagilar aniqlandi: Imorat kvadrat shaklida yirik xom g'ishtlardan qo'shminora tarzida o'rab chiqilgan tagkursi (balandligi 15 m)larning biriga podsho saroyi va ikkinchisiga soqchixonali darvozaxona bino qilingan. Arkning sharqiy qismida tomi ravoqsimon gumbaz tarzida yopilgan uzun yo'laksimon (navkarxona va darvozaxona) xonalar mavjud bo'lgan. Arkning markazida janubiy tomoni mudofaa devoriga yondoshgan Varaxsha xukmdorining saroyi joylashgan. Saroy sharqiy va g'arbiy mehmonxona hamda qizil xonalardan iborat bo'lgan. Saroy g'arb tomonidan, 3 ravoqli ganchkori ustunlar o'rnatilgan, xashamatli peshayvon bilan o'ralgan. Ayvon ravoqlarining ustunlari va toqilari ganchkori qabartma tasvirlar hamda turli xil girihlar bilan bezatilgan. Saroyning qizil xona va sharqiy mehmonxonasi to'la kavlab ochilgan. Xona devorlari mayda somonli loysuvoq ustidan yupka ganch suvoq qilinib, devoriy rasmlar qizil, sariq, kulrang, qora, zangori, pushti va jigarrang bo'yoqlar bilan bezatilgan. Ularda turli xil manzaralar, fil mingan shahzoda va chokilarning old va ortdan chovut solgan qoplonlar bilan olishuvi; qayrilib nishonga kamoldan o'q uzatayotgan ot ustidagi chavandoz; qanotli tuya shaklidagi oltin taxtda o'tirgan hukmdor tasvirlangan. Sharqiy mehmonxona devorida tiz cho'kib, qo'lida qadax tutgan malika, belida shamshir, bir qulida qisqich ushlagan podshox, o'rtada vazasimon otashgohda yonib turgan muqaddas olov-azarxurro, otashgohdan o'ngda beliga xanjar taqilgan shahzodaning tiz cho'kib ibodat qilayotgan tasviri yoki sovutqa dubulga kiygan, qo'llarida nayza, qalqon ushlagan suvoriylarning jang qilayotgan, shuningdek bo'tazor, tuqay ichidagi ov manzarasi kabi tasvirlar ayniqsa diqqatga sazovordir.

### ***Labihovuz Ansambli***

Labihovuz majmuoti joylashgan joyda dastlab bozor maydoni bo'lgan. Maydon o'rtasida katta hovuz qazilib (1620 y.) atroflari sinchlar bilan



mustahkamlangan, xarsanglardan zinapoyalar, marmardan tarnovlar ishlangan. Shag'al va tuproq bilan to'ldirilib shibbalangan. Hovuz eni 36 m., bo'yi 45,5 m, chuqurligi 5 m. Uning g'arbida Nodir devonbegi xonaqohi, sharqida Nodir devonbegi madrasasi, shimolida Ko'kaldosh madrasasi va Ernazar Elchi madrasasi (saqlanmagan) qad ko'targan.

Labihovuz paydo bo'lishi to'g'risida bir tarixiy voqea saqlanib qolgan. Buxoro xoni Imomkulixon bosh vaziri bo'lmish Nodir devonbegi o'z xonaqohi yaqinida keng hovuz qurdirmoqchi va shu maqsad uchun bir yahudiy ayolga tegishli bo'lgan erni egallamoqchi bo'lgan. Lekin er egasidan rad javobini olgach, vazir bu ayolning uyi ostidan ariq qazishga buyruq bergan. Ariq suvlari uy devorlarini namlanishiga va uyni buzilishiga sabab bo'lgan. Bechora ayol uyini tark etishga va erini qudratli vazirga topshirishga majbur bo'lgan. Halq qurib bitkazilgan hovuzni mahfiy ravishda «Hovuzi bozur» deb nomladi. Bu ikkita so'z esa arab tili transkriptiyasida "1620 yilda qurilgan" tushunchasini beradi.

### ***Ko'kaldosh madrasasi.***

Ko'kaldosh madrasasi Labi hovuz ansamblining shimollida joylashgan. Buxoro xonining vaziri Kulbobo Ko'kaldosh qurdirgan (1568-1569 y.) Ikki qavatli bosh tarzi ansambl maydoniga qaratilgan. Peshtoqini bezatib turgan koshinlar saqlanib qolmagan. Madrasa peshtoqidagi darvoza girih va islamiy naqshlar bilan bezatilgan. Xotamkori uslubida terib mahkamlangan pilaqchalrdan yasalgan darvoza tabaqasi yaxlit taxtadan tayyorlangandek ko'rinadi. Madrasa hovlisiga 5 gumbzli miyonsaroy orqali kiriladi. Miyosaroyning ichki gumbazlari va bag'allari shipi o'ziga xos turli shaklda murakkab to'rsimon-yulduzsimon, "qolibkori" va "iroqi" uslubida pishiq g'ishtdan ganch qorishmasida terilgan. Madrasa hovlisi uzun (42 x 37 m), o'rta yangi imorat 1929 yilda qurilgan. Hovli tomondagi 2 qavatli ravoqlar qatorini yuzma-yuz qilib solingan peshtoqli baland ayvonlar ajratib turadi. Har bir ravoqdan alohida hujraga kiriladi. Hovli atrofi 2 qavatli 160 hujra bilan o'ralgan. Yon tomonidagi hujralarning pastki qavatiga (tashqi devorlarida) xonani yoritish uchun panjaralar o'rnatilgan. Yuqori qavatiga esa qator qilib chuqur ravoqlar ishlangan. Ravoqlar tepasini va ba'zi darcha panjaralarini bezatishda koshin ancha tejab ishlatilgan. Bosh

tarzidagi peshtoq kitobasida yozuvlar saqlangan. Peshtoqining ikki yonidagi masjid va darsxona oldiga 2 qavatli 3 qismga ajratilgan chuqur ravoqlar va burchaklaridagi guldastalarda Buxoro me'morligiga xos qadimiy milliy an'analari aks ettirilgan.

Ko'kaldosh Madrasasida Sadridin Ayniy tahsil ko'rgan, u yashagan hujra muzeyga aylantirilgan va eksponatlar bilan jixozlangan.

### ***Nodir Devonbegi madrasasi.***

Buxoro xoni Imomkulixonning vaziri Nodir devonbegi (Nodir Mirzo Tog'ay ibn Sulton) qurdirgan (1622-23 y.). Nodir devonbegi madrasasi Labihovuz ansamblining sharqiy qismida joylashgan. Dastlab karvonsaroy sifatida qurilgan, keyinchalik xonning qarori bilan madrasaga aylantirilgan. Unda madrasalarga xos ayvon, masjid va katta darsxona yo'q, hovli atrofi 4 tomondan 2 kavatli kichik hujralar bilan o'ralgan. Hujralarga o'ymakori usulida bezatilgan eshiklar, eshiklar tepasidagi tobadonga panjaralar o'rnatilgan. Hovliga pishik g'isht yotqizilgan. Bosh tarzi maydonga qaragan. Old tomonida hovuz bor. Peshtog'i o'ziga xos mahobatli va serhashamdir. Undagi o'simliksimon naqshlar orasida quyoshga intilayotgan afsonaviy xumo qushi va bug'uning o'tlab yurgan tasviri koshinkori bezaklari yorqin bo'yoqlarda aks ettirilgan. Hoshiyalariga, kitobasiga arabiy o'zuvlar bitilgan. Ustungo'shasi buramasimon. Peshtog'ining 2 yon qanotidagi 2 qavatli 3-ta chuqur ravoqli peshayvon, alohida zeb berib, pardozlangan. Burchaklaridagi 2 guldasta ravoqlardagi naqshlar bilan o'zaro uyg'unlashgan. Madrasa tarhi 52 x 49m, hovli 34 x 30m. Nodir devonbegi madrasasi bir necha marta ta'mirlanib, gumbaz, ravoq va devorlaridagi namlik yo'qotilib, buzilib ketgan xujralari qayta tiklandi.

Nodir devonbegi XONAQOHI Labihovuz ansamblidagi hovuz bilan birga 1620-21 yillarda bunyod etilgan. Peshtog'i hashamatli, ravog'ining qanosi ancha baland, ulug'vor, ayrim erlarida koshinlarning parchalari saqlanib qolgan. 2 tomonidagi tagi qirrali guldasta- mezanalar old ko'rinishiga salobat beradi. Xonaqohning 2 yonidan ham hujralarga kiriladigan eshiklari bo'lgan. Devorlari bir necha bor ta'mirlangani (1914-16 yillarda Buxoroning oxirgi amiri Sayid Olimxon tomonidan ta'mirlangan)dan asl ko'rinishi o'zgargan. Nodir devonbegi xonaqohi simmetrik tarhli (27,5 x 25 m), kiraverishda ayvon, xonaqoh (11,2 x 11,2 m) va uning yon tomonlarida 2 qavatli

darvishlar yotog'i bo'lgan. Guldastalar ichidagi aylana zina bilan bino tepasiga chiqiladi. Xonaqoh ulkan gumbazli, devorlariga taxmonlar ishlangan. Undagi serhasham naqshlar saqlanmagan. Peshtoq ravog'idagi 3 tobadonni ganchkori panjaralar bezagan.

### ***Mir Arab Madrasasi***

Madrasalar UP-USh asrlarda islom dini ulamolari musulmon ilohiyoti masalalarini sharhlab berib turadigan markaz sifatida arab davlatlarida paydo bo'lgan. IX-XSh asrlarda islom diniga e'tiqod qilinadigan mamlakatlarda, jumladan O'rta Osiyoda tarqaldi. Madrasalarda milliy ziyolilar tayyorlangan. Madrasalarning xon madrasalari, eshon madrasalari, xususiy madrasalar kabi turlari bo'lgan. Madrasa muassislari madrasalarni ta'minlash uchun maxsus mulk- vaqf ajratishgan.

Madrasalar musulmon olamida me'morlik inshooti sifatida X-XI asrlarda vujudga kelgan. Ilk madrasalar bir qavatli, o'rtasi hovli va uning atrofi hujralardan iborat bo'lgan. XIU- XU1 asrlardan boshlab hashamatli madrasalar binolarini qurish avj oldi. XX asr boshida Buxoro amirligida 336 madrasa bo'lgan.

Bu davrda Buxoro hamda O'rta Osiyo boshqa shaharlarida musulmon ruhoniylarning nufuzi yanada oshgan edi. Islom ruhoniylardan ko'pginasi yirik mol-mulkka ega edilar. Islom dinining qudratini yanada mustahkamlash va o'z ahamiyatini yuksaltirish maqsadida boyliklarining bir qismini diniy inshootlar qurilishiga yo'naltirganlar.

Mir Arab madrasasi Buxoro xoni mumtoz shoir Ubaydullaxon buyrug'iga binoan Shayx Abdulloh (Miri Arab) tomonidan 1530-36 yillar davomida qurdirilgan. Mir Arab (asl ismi Sayid Abdulloh Amir) 22 yoshida Samarqandga kelib Xo'ja Axrorga shogird tushgan. Turkistonning Sabronida 2-ta qoriz (er osti arig'i) qazdirgan, suv chiqargan, qal'a bino etib, Shofirkon, Vobkent, Gijduvonda ko'p joylarni obod qilgan. Shofirkonda Miri Arab qal'asi saqlangan. U naqshbandiya tariqatining rivojlanishiga katta xissa qo'shgan. Madrasa qurilishini nihoyasiga etqaza olmagan. 1536 yil boshida Mir Arab vafot etgan va uning vasiyatiga ko'ra kuyovi Shayx Zakariyo qurilishni oxiriga yotqazgan.

Bu madrasa Ubaydulloxonning Xorasanga lashkar tortib borib, muvaffaqiyat qozonishi sharafiga qurila boshlangan. Xon u erdan katta o'lja va uch mingdan ziyod qul olib kelgan. Tarixiy yozuvlarga ko'ra madrasa qurilishiga in'om etilgan mablag'lar kullarni sotishdan kelgan pullar edi. Madrasa Minorai Kalonning qarshisida joylashgan. Bosh tarzi ulkan peshtoqli, darvozasi orqasida 5 gumbazli miyonsaroy, ikki yonida baland gumbazli keng darsxona va masjid, go'rxona joylashgan. Koshinkori naqshlar yozuvlar bilan uyg'unlashgan (saqlanmagan) Go'rxona ichi gumbaz osti bag'ali qalkonsimon muqarnasli, shipi va devorlari ganch uymakorligida bezatilgan, izorasi rang-barang koshinli. Go'rxonada Ubaydullaxonning, yog'ochdan xotamkori usulida ishlangan, sag'anasi va Mir-Arab, uning qarindoshlari qabrlari bor. Madrasaning umumiy tarhi: 68,5 x 51,8m. Xovlisi to'rtburchak shaklida bo'lib, atrofini oldi ravoqli ikki oshyonli 114 hujra o'rab turadi. Tomonlar o'rtasidaga 4-ta baland peshtoqli darsxona-ayvon hovli maxobatini oshiradi, tuzilishi jixatidan naqshinkor janubiy peshtoqning dastlabki qiyofasi saqlanib qolgan, bu naqshlarning tarkibiy qismida yulduzsimon bezaklar uchraydi. Undagi bezaklarning saqlanib qolgan ayrim parchalaridan naqshlar g'oyat nafis va nozik bo'lganligini bilish mumkin. Rivoyatlarga ko'ra madrasa asosi chuqur qilinib, tog' toshlari bilan mustahkamlangan, qor, yong'ir suvini qochirish uchun tazarlar ishlangan, ular orqali suvlar shahar qo'rg'onidan tashqariga chiqarilgan. Miri-Arabda O'rta Osiyo diniy maktablari qurilishiga xos an'anaviy loyixa va mujassamot o'z ifodasini topgan.

Madrasaga maktabxonani tugatganlar qabul qilingan. Talabalar yoshi 10 dan 40 yoshgacha bo'lgan. Mashg'ulotlar, odatda, sentyabrda boshlanib, may oyigacha davom etgan. Madrasada hafta kunlari tahsil (shanba, yakshanba, dushnba, seshanba)-mashg'ulot kunlari va ta'til (chorshanba, payshanba, juma)-o'tilganlarni takrorlash hamda dam olish kunlariga bo'lingan. Darslar quyosh chiqish payti (bomdod namozidan eyin) boshlangan. Madrasada ta'lim 3 bosqichga: boshlang'ich (adno), o'rta (avsat) va yuqori (a'lo)guruhlarda olib borilgan. Madrasada o'qish talabalar iqtidoriga qarab, 7-12 yil o'tgan.

Xozirgi kunda Mir Arab Madrasasi O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi diniy o'quv yurti bo'lib qolmoqda. Madrasada diniy fanlar hamda umumta'lim fanlari o'qitiladi. Talabalarga arab, ingliz, rus va fors tillari ham o'rgatila

### ***Toqi Zargaron***

Zargarlar toqi XU1 asrda qurilgan . Zargarlik buyumlarni sotish uchun mo'ljallangan savdo markaz bo'lgan. Gumbazi arablar bosqiniga qadar qurilgan deb taxmin qilinadi. Vosifiyning XU1 asr boshlarida yozgan asarida Buxoro chorsusi sifatida tilga olingan.

Toki Zargaron Ulug'bek madrasasi yonida, qadimiy shahriston markazi bo'lib, ikkita katta ko'cha kesishgan chorraxa ustini qoplab turadi. Bino, asosan, XU asrlarda qurilgan (XU1 asrda to'la to'kis ta'mirlanganligi sababli shu yili bunyod etilgan deb taxmin qilinadi). Ulkan gumbaz sakkizta toqiga o'rnatilgan, tarhi 45,4 x 43,5m, balandligi 16,7 m., gumbazining asos aylanasi 14 m, poygumbazi ko'p qirrali, undagi 16-ta darcha orqali bino ichiga yorug'lik tushib turadi. Atrofini o'rab turgan do'konlar gumbazi balandligi 5-7 m. O'tmishda uning dalonlarida 36 zargarlik ustaxonasi va do'konlar bo'lgan. Atrofiga savdo rastalari, ombor, karvonsaroylar qurilgan. Toqi Zargaron Buxorodagi toqilarning eng yirigi va mujassamoti jixatidan murakkab xisoblanadi.

### ***Toqi Telpakfurushon***

Bosh kiymlar tayyorlash va sotishga muljallangan gumbazli bino 1570-71 yillari qurilgan. Vaqf hujjatlariga ko'ra, turli tomonlardan kelib tutashgan besh ko'chaning kesishgan joyida qurilgan Bosh gumbazi oltiqirrali devor ustiga o'rnatilgan, atrofi- ko'cha, ko'chalardan kirish qismlari esa kichik gumbazchalar bilan yopilgan. Gumbaz diametri 38 m, zal shifti – 10 m, savdo ko'chasining saqlanib qolgan maydoni 28 m, ko'cha kengligi – 14 m. O'tmishda gumbaz ostida bosh kiyim va kitob sotuvchi muqovosoz ustalarning do'konlari bo'lgan.

### ***Toqi Sarrofon***

Shayboniylar davrida Buxoro xususiy tadbirkorlik, qarz berish va pul almashtirish markaziga aylangan.

Toqi Sarrofon- pul almashtiradigan bosh savdo markazi XU1 asrda Shahrustonning ikki ko'chasi kesishgan joyda, qadimiy Shohrud arig'i ustida qurilgan. Toqi Sarrafon eng kichik gumbazdir. Bino sakkizqirrali (tarhi 25 x 24 m), gumbazlarning ichki diametri 12 m, Tashqi gumbaz (bal. 16,5 m) 4 toqi ustiga o'rnatilgan, shaharning janubdagi chorraha ustini berkitib turadi. XU1 asrning ikkinchi yarmida zalning kesik burchaklaridan biriga masjid, boshqasiga Sarrofon xammomi, qolgan 2-tasiga Sarrofon do'konlari kelib tutashgan. Masjidga kiraverishda «Bu qurilish 1534-35 yillari Ubaydullo Baxodirxon podsholigi davrida yakunlangan» degan yozuv saqlangan. Bu atrofdagi binolarga ham tegishli bo'lishi mumkin. Toqilar orasida Misgaron, Sarrofon hammomlari saqlangan. Hamomlar issiqliqni saqlash maqsadida erni chuqur qazib, deyarli er ostida, yarim er to'la tarzida qurilgan. Arxitekturasi bir-biriga juda o'hshash bo'lgan bu hammomlarning echinish xonasi, choy ichib, hordiq chiqariladigan katta (yog'och ustunli) xona, o'rtada asosiy o'qalash xonasi, uning atrofida yuviniladigan xonalar bo'lib, ular katta va kichik gumbazlar bilan yopilgan. G'isht, tosh terib ishlangan hovuzaklarda issiq va qaynoq suvlar, xonalar ostidan qaynoq xavo bilan issitilgan. Xonalardan xonalarga o'tilgan (xonalar ichkariga tomon tobora issiy borgan). Oqava suvlar uchun ariqchalar qazilgan. Xushbo'y moddalar va qo'l suv uchun muljallangan hovuzchalar sirti suvga chidamli mahsus qorishmalar bilan qoplangan.

### *Ark qo'rg'oni va Minorai Kalonning tarixi*

**ARK** – O'rta Osiyo qo'hna shaharlaridagi hukmdorlar qarorgoxi joylashgan qal'aband o'rda.

Rivoyatlarga ko'ra Ark paydo bo'lishi O'rta Osiyo halqlarining epik kaxramoni Siyovush nomi bilan bog'liq. Siyovush Qay Qovusning o'g'li, uni Baxodir Rustam tarbiya qilgan. O'gay onasi Sudoba Siyovushga shahvoniy mexr qo'ygan. Biroq undan rad javobini olgach, o'zini nomusiga tajovus qilganligida Siyovushni ayblagan. Siyovush gulxan sinovidan o'tib, o'zini pok, aybsizligini isbot qilgan. Shundan so'ng Siyovush Turon podshosi xuzuriga kelgan.

Podshoxning qizi Farangiz Siyovushni sevib qolgan, lekin podshox Siyovush oldiga buqa terini yoyib, bu teriga sig'adigan erda qasr qurib berish shartini qo'ygan. Siyovush ushbu terini tilim-tilim qilib kesib, uchlarini birlashtirib, xosil bo'lgan davra markaziga qasr qurdi.

Podshox uni dastlab yaxshi qabul qilgan, so'ngra Afrosiyob makkorlik bilan uni o'ldirgan. Ark to'g'risida ilk ma'lumotlar Abubakr Narshaxiyning «Buxoro tarixi» kitobida berilgan.

Yozma tarixiy manbalarda ko'handiz, diz, koh, qasr, qal'a,lari bilan ham tilga olingan.

Tabiiy baland tepa yoki mahsus yaratilgan baland do'nglik ustiga qurilib, atrofi baland devor bilan o'ralgan, bir yoki ikki darvozasi bo'lgan. Ark ichida podshox va amirlarning, amaldor va lashkarboshilarning uy-joylari, davlat devonlari, zarbxona, masjid, sardoba va boshqa binolar bo'lgan.

Ark – Buxoroning ming yillik tarixi va asosiy rivojlanish bosqichlarini aks ettirgan chinakam yilnoma. Arkdagi har bir yodgorlik o'z sukunatida olis o'tmish sirlarini saqlaydi.

Dastlab, miloddan avval 1 asrda qurilgan shaharning qadimiy qal'asi bo'lgan. Arablar istislosiga qadar Arkda shahar xokimlari- buxorxudotlar yashagan. Somoniylar davrida (IX-X asr) qayta qurilib devor va burjlar bilan mustaxkamlangan. Qoraxoniylar davrida (XI-XP asr) va mo'g'ullar bosqinchiligi vaqtida ( XSh asr) Ark bir necha bor vayron qilingan.

Ko'p marotaba shaharda qo'zg'olonlar ko'tarilgan va shunda Ark shafqatsiz zulm ramziga aylangan, uning darvozalari tomon 1708 yilda pul isloxotini bekor qilish bilan bog'liq bo'lgan qozg'olondagi kabi, toshlar otilgan.

Ark faqatgina halq la'natlaydigan hokimlar karorgoxi bo'lib qolmay, bu erda buyuk olimlar, shoirlar, faylasuflar ijod qilganlar. O'rta asrlarda Buxoroning madaniyati gullab yashnaganda ilm-fanga e'tibor oshgan bo'lib, olimlarga ilmiy ijod uchun qulay sharoit yaratib berilgan edi. Bu koshonada ensiklopedist olim Aburayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Rudakiy, Firdavsiy, Farobiy, Umar Xayyom kabi jaxonga mashhur bo'lgan o'rta asr olimlari yashadi va ijod qildi. Ammo taqdir,

Buxoro hokimlari aksida, iste'dodli odamlarga nisbatan shafqatsiz bo'lsa ham (Rudakiy va Ibn Sino Buxoroni tark etganlar), Arkda ular odamzodning buyuk aql egalari bilan muloqotda bo'lish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Bu imkoniyatni noyob kutubxonada taqdim etgan. Buyuk Avistenna bu haqda shunday yozgan:–“ Men bu kutubxonada umrimning oxirigacha xech qaerda ko'rmagan va uchratmagan kitoblarni topdim. Men ularni mutolaa qildim va menga xar bir olimning o'z ilmida o'rni ayon bo'ldi. Mening oldimda aql bovar qilmaydigan bilim xazinasi ochildi». Bu kutubxonada noma'lum sabablarga ko'ra saqlanib qolmagan.

Buxoro Arkining xozirgi qiyofasi asosan Shayboniylar sulolasi davri (XU1 asr)da shakllangan.

Balandligi 20 m.gacha bo'lgan Ark tepalik ustiga qurilgan Arkning maydoni- 4 ga, tarhi ko'pburchakli. Turli davrlarda devorlari tosh, pishiq va xom g'isht, paxsalar bilan mustaxkamlangan. O'pirilib tushgan joylari dastlab xom g'ishtdan, keyin pishiq g'ishtdan ta'mir etilgan. Ko'tarib boruvchi yo'l orqali g'arbdagi darvozadan (XU1 asr) ichkariga kiriladi (sharq tomonida ham ilgari darvoza bo'lgan). Darvozaxona peshtoqning ikki yon tomonidagi «guldasta» va ular oralig'idagi uch qavatli bino yaxshi saqlangan. Ark ichkarisiga olib kiradigan uzun dalon- yo'lakning chap devoriga va o'ng devoriga 12 taxmoncha qilingan. Chap tomonidagi toqchalarining ba'zilarida obxonaga kiriladigan eshiklar bor. Guldasta (burj)lar tagida zax va dim erto'lalar bo'lgan.

Dalonning o'ng tomonidagi o'rta toqchasida afsonaviy kaxramon Siyovush ruhiga Navruz bayramida chiroqlar yoqilgan. Nishopuriy yozishicha, uldirilgan Siyovush jasadi Buxoro sharqiy darvozasi (Go'riyon) oldiga ko'milgan. Yangi yil kuni quyosh chiqquniga qadar har bir erkak Siyovushga atab xuroz so'yishi lozim bo'lgan. Amir sayisxona (otxona)siga ham shu erdagi zinadan kirilgan. Dalondan chiqaverishda to'pchi boshi (Saroy qo'riqchilari boshlig'i)ning mahkamasi, shu erdagi ayvon tagida erto'la bo'lgan (bu binolar buzilib ketgan). Undan sal narida (g'arbiy devor burchagida) peshayvonli jome masjid (Saroy masjidi) qurilgan (XUSh asr ohiri). Masjid derazalari panjarali, devorlarining ichki tomonidagi naqshlar orasiga Qur'on oyatlari bitilgan. Peshayvon shipi murakkab girihlar bilan bezatilgan. Arkning shimoliy-g'arbiy burchagida to'pchi boshining uyi va ta'mir ishlari ustidan nazorat qiluvchi kishi



turadigan xona bo'lgan. Masjidning sharq tomonida oshxona, orqa tarafida zarbxona (oltin, kumush va chaqa tangalar zarb qilinadigan joy) bor. Zarbxonaning shimoliy-sharqida zargarxona, janubida devonbegining mahkamasi, qushbegiga qarashli binolar bo'lgan (ba'zilari hozir ham bor). Jome masjiddan boshlangan tor yo'lak, qushbegi hovlisi orqali, chorsuga tutashgan. Chorsuning chap tomonida tom yotqizilgan katta hovli- ko'rinishxona o'rnashgan. Unda elchilar qabul qilingan va amirlarning taxtga o'tirish marosimlari o'tkazilgan. Hovliga kiraverishda naqshli peshtoq bo'lgan (1605 y.). Hovlining uch tomoni ayvon bilan o'ralgan. Oldingi peshayvonda ikki qator naqshli ustunlar bo'lib, ularning tepasi kalla muqarnaslar bilan bezatilgan. Nurota marmaridan qilingan taxt shu ayvondagi taxtiravon tagida turgan. Hovlining janubiy tomonida «Raximxon mehmonxonasi» va qorixona qurilgan (XUSh asr). Bu binolar tagida erto'lalar bo'lib, ularda xazina saqlangan. Arkning shimoliy sharqidagi zindon mangitlar saltanati davrida qurilgan. Arkning g'arb tomonidagi hovlida mirzalar va boshqa xizmatchilar uchun ikki qavatli binolar qurilgan. Sal narida- salomxona, undan sharq tomonda mehmonxonalar, amir hamda oliy mansablarga qarashli boshqa binolar joylashgan (miyon hovli). Janubda hammom, hammomning sharq tomonidagi kichkina masjid hozirgacha saqlangan. Arkning markazidi o'rda (amir xotinlari turadigan uylar), shimolda qushbegi xotinlari uylari, hammomning harqida haramidagi qizlarning uylari, sharqida zodagonlar yashaydigan uylar bor. Shimoliy-sharqiy burchakda Childuxtaron masjidi va Battol G'oziy mozori bo'lgan. Arkning sharqiy devori bo'ylab g'ulombachcha (soqchilar kazarmasi), janubiy –sharqiy burchagida dorixona (o'q dorilar ombori) joylashgan (arkning g'arbiy devoriga taqalgan binolarning bir qismigina saqlangan). Arkdagi qariyb 80 foiz imoratlari saqlanmagan. Arkning markazida (poydevor qoldiqlari va xarobalari orasida) er tagidan o'tgan Ark ichiga qarab ketgan katta sopol quvurlar ko'rinib turadi. Bular oqova suv quvurlarining qoldiqlari. Arkning g'arbiy devoridan boshqa hamma devorlarining burchaklaridagi minoralar buzilib ketgan. Ark darvozasi oldidagi Registon maydonida ko'pgina imoratlar bo'lgan. Uning g'arbiy devoriga qaragan peshayvonga zambaraklar qo'yilgan. Ark darvozasining chap tomonida lashkarboshi mehmonxonasi, shimolda esa qurol-yarog'lar tuzatiladigan ustaxona va aslahatxona (ko'rxona) bo'lgan. Arkning shimoliy-

sharqidagi «Childuxtaron» maqbarasi, janubiy-g'arbda "Battol G'oziy xonaqohi"ga xos hammom qoldiqlari saqlangan. 1990 yilda arxeologlar tomonidan olib borilgan qazishmalar natijasida Amir mehmonxonasi hisoblangan xonaqoh va uning atrofidagi hujralarning poydevorlari, hovli ichkarisidagi supa, toshnov, tazar, sandal va yaxxonalar ochildi.

Ark tepaligidan qadimiy Buxoroning takrorlanmas tasviri ochiladi. Buxoro restavratorlari Arkni me'morlik san'atining qo'llanmasi deb bekor atamaganlar. Ark devorlari kup asrlik quruvchilik tajribasining yaqqol namunalari.

Buxoroni ulug'vor Minorai Kalonsiz tasavvur etish mumkin emas. O'rta Osiyodagi mashhur arxitektura yodgorliklari o'rtasida eng balandi hisoblangan va 900 yildan ziyodroq vaqt avval qurilgan bu minora Buxoro qiyofasida alohida mavqega ega. Uni ba'zida «o'lim minorasi» yoki «ajal minorasi» deb atashgan va, afsonalarga qaraganda, o'linga hukm etilgan jinoyatchilarni, bevafo xotinlarni undan tashlashgan. Minorai Kalon «Arslonxon minorasi» deb ham atalgan. Muhandis va me'mor Baqo loyixasi asosida Arslonxon 1127 yilda qurdirgan. Minorai Kalon o'rnida avval ham minora bo'lgan, u qulab tushgach, hozirgisi mustahkam qilib, qayta qurilgan. Poydevori tosh va mahsus qir qorishmasidan terilgan. Er sathidan 9 m chuqur, balandligi 50 m., kursisi qirrador, tanasi g'o'lasimon, tepasi gumbazli, davra qafasi- ko'shq bilan bog'langan. Minora yuqoriga ingichkalashib boradi va muqarnas bilan tugaydi. Qafasidagi 16 ravoqli darchalar orqali atrofni kuzatish mumkin. Tepaga minora ichidagi 104 pilpoya aylanma zina orqali chiqiladi. Masjidi Kalon tomonidan minoraga o'tiladigan ko'prikcha bo'lgan. Minorai Kalonning o'zagi ham, bezagi ham chorsi g'isht ganchxoq loyida terilgan. Bezak g'ishti o'rniga qarab turli shaklda, sirti silliq pardozlangan ustma-ust joylashgan turli xil xandasiy shakldagi bejirim bezakli xalqalari g'ishtin dandalar bilan hoshiyalangan. Bezaklar orasida tarihiy va diniy mazmundagi qufiy yozuvlar uchraydi. Muqarnas ostidagi moviy rang sirkor halqalarining xar biri turli xil handasiy shaklda bezatilgan (keynchalik to'kilib ketgan). Minorai Kalon shu turdagi qadimiy inshootlar orasida alohida o'rin tutadi. Shakllarning o'zaro monandligi va mutanosibliigi, handasiy uyg'unlik, ajoyib ko'rk va mahobatlilik Minorai Kalonga chinakam go'zallik bag'ishlaydi.

Tanasi va muqarnaslari ta'mir etilib (1924 y.), er ostidagi asosi usta ochil Bobomurodov tomonidan ochib ta'mirlangan.. Minorai Kalon Buxoro shahrining noyob va qo'hna yodgorliklari qatorida markaziy o'rin egallagan.

## **1.2. Rang tasvirda manzara kompozitsiyasining ahamiyati.**

Kompozitsiya suzi lotinchadan kompositio-yani predmetlarini bulaklarini solishtirib, ma'lum tartibda yaxlit joylashtirish, goyaga muvofik ijod qilish,baen qilish, kompozitsiya tuzish demakdir. Kompozitsiya,san'atning xamma turlarini negizida mavjud: adabiet, teatr-kino, musika, tasviriy va amaliy san'at,arxitektura va xokazo. Kompozitsiya ukuv predmet sifatida, kalamtasvir, rangtasvirdan keyin paydo buldi va xozirda kompozitsiya kursi oliy ta'lim kasb-xunarlari ukuv rejalariga kiritilgan. Pedagogika universitetlarining badiiy-grafika fakultetlarida kompozitsiya fani talabalarni ijodiy kobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga kompozitsiya konun,koidalarini, xakikatni tugri shaklda ifodalash usullarini urgatadi. Tasviriy san'atda kompozitsiya kalamtasvir,soya-erug,rang,xavo va chizik perspektivasi kabi tasviriy vositalar bilan yaratiladi.

Kompozitsiya

kursi talabalarni mustakil ijodiy va pedagogik faoliyatida obrazli fikr yurgazi shida katta ahamiyatga egadir.

Kompozitsiya fani suxbat, ma'ruza va amaliy mashgulotlardan iborat. Kompozitsiyani asosiy konun, koidalari, usul va vositalari, talabalar tomonidan amaliy mashgulot va suxbatlar jaraenida mukammal urganiladi. Kompozitsiya-ukuv predmet sifatida,xaykaltaroshlik,me'morchilik, grafika,kalamtasvir, rangtasvir,san'at tarixi kabi mutaxassis fanlar bir-biri bilan uzfiy boglikdir.

Kalamtasvir va rang tasvirda rassom bevosita kompozitsiya asoslariga murojaot kiladi, uning konun-koidalarini bilmay turib kompozitsiya, kalam tasvir, rang tasvir moxiyatini tushunib etmaydi. Ushbu kompozitsiya ukuv kullanna predmetining moxiyati, uning tasviriy san'atda rivojlanish tarixi, badiiy ijodning asosiy konun koidalari, vositalari va ularni pedagogika universitetlarining Badiiy-grafik fakultetlarida ukitish metodlari xakida tavsiyalar tushunchalar beradi.

Shuning uchun rassom - ukituvchilarni tayyorlashda kompozitsiya fanining eng murakkab va muxim fan sifatida urganish tavsiya etiladi.

### ***Kompozitsiya tarixini rivojlanishiga qisqa izoh.***

Tasviriy san'atda kompozitsiya qonun va qoidalari insoniyatni ibtidoiy tarakkiyot davridan boshlab shakllana boshlagan. Lekin ibtidoiy davr odamlari xayotni zexn bilan kuzatsalarda, kompozitsiya sezgisi juda bush rivojlangan. Bunday xolatni odam gavdasi va xayvon podalarini tartibsiz aloxida tasvirida kurishimiz mumkin. Qadimgi sharq san'atidagi kompozitsiya ibtidoiy davrdan aloxida farq kiladi. Qadimgi sharqda kompozitsiya mavzusi tekislikda qat'iy ma'lum tartibda tasvirlanib, quldorlik jamiyatning (marosimlari) Konunlariga buysundirilgan. Qadimgi Misr san'atida kompozitsiyani dastlabki yangi usullari paydo bula boshlagan. Bu esa jamiyatda ijtimoiy xayotni ongli rivojlanishi natijasidir. Tasvirga chizgi, ulcham, rang va tus munosabatlari yukori darajaga kutarildi. Kadimgi dunyo rassomlari tabiat yaratgan usimlik, barg va gullarni tuzilishida, yil faslini ketma-ket kelishida simmetriya va ritm tushunchalarini anglab, uz ijodiy asarlarida, kompozitsiyada kullay boshladilar. Shuning uchun kadimgi greklar relief, fronton kompozitsiyalarida ritm va simmetriyadan unumli foydalanganlar. Uygonish davrigacha kompozitsiya faniga bagishlangan biror bir nazariy kullanma yaratilmagan. Uygonish davri renessans insoniyatga ulug san'at allomalarini etkazib berdi. usha davr rassomlari esdalik, kundalik, ilmiy makolalarida kompozitsiya xakida kimmatli fikr, xulosalarni yozib koldirdilar. Erta uygonish davrining vakillari Djotto va Mazachcho uz ijodlarida perspektiva, plastik anatomiya, geometriya konunlarini amalda kullab, kompozitsiya fanining bilimdoni ekanliklarini misolda kursatdilar. Yukori uygonish davri rassomlari san'atning xar xil turlarini bir-biri bilan boglab, uning nazariyasini ilmiy asoslagan xolda rivojlantirdilar. Ular perspektiva yordamida kartinada chukurlik, masofani tasvirini xakkoniy namoyon etishga erishishdi. Kup yillik kuzatuv va analiz natijasida kuzga kuringan rassomlarning asarlarini goya tuzilishi, rang echimidagi uslub, amaliy tajribalarini umumlashtirib Alberti "Rang tasvir xakida uch kitob" ilmiy nazariy meros yozib koldirdi. Leonardo da Vinchi va Alberti uz makolalarida

badiiy asarlarida statik (xarakatsiz) va dinamikaga (xarakat) aloxida axamiyat bergan edi. Fransuz rassomi E. Delakrua uz kundalik va ilmiy makolalarida Leonardo da Vinchi, A. Dyurer, P. Rubenslarni kompozitsiyaga oid traktlarini kengaytirib chukur ma'nolar bagishlab davom ettirdi.

Osmon yulduzlarini shu'lasini ta'sirida inson jismiga Olloxdan in'om etilgan guzallik va kobilyatni uziga mujassam etgan allomalarni er yuziga kelishini insoniyat bir necha bor guvoxi bulgan kobilyatni Leonardo da Vinchi guzal kiyofasida xar kandy mushkul ishlarni osonlik bilan uddasidan chikadigan odil inson shaklida kuramiz. Vinchi shaxridagi janob Peroning ugli Leonardo, shunday iloxiy kuch-kudratga ega ediki, u bir necha oylab, matematika bilan shugullanar, lirada musika chalar kushik aytib malakasini oshirardi. Shunday bulsada asosiy kizikishi bulgan rasm chizish va xaykaltaroshlikni tashlamadi. Xudo bergan betakror akl-zakovatli, xotirasi kuchli buyuk alloma chizgan tasvirlari bilan insonni xayratga solar, fikr-muloxaza kuchi bilan lol koldirardi. U Milan shaxrida Dominikanlik aka – ukalar uchun "Maxfiy kecha" nomli guzal asar yaratdi. Avliyolarni chexasiga xusn kushib, ulugvor kilib tasvirlanadi. Fakat Iisusni yuz kiyofasini tasvirlashda iloxiy kudrati etmaydi chala koldirgan va umrini oxirigacha bitira olmagan edi. Leonardo odam anatomiyasini Galena ta'limotiga asoslangan chukur urgandi, murdalarning suyak muskullarini pero va kizil kalamda sinchiklab chiza boshladi va odam anatomiyasi tasvirlari kitobini yaratdi. Otlarning suyaklari anatomiyasi kitobini xam yaratgan. Bu anatomiyaga oid chizgilarning kup kismi Leanardonning avtoportretlari bilan bir katorda bizlargacha etib kelgan. Leonardo Franchesko del Djokondo uchun uning xotini Liza portretini 4 yil mobaynida ishladi, ammo shunday bulsada portretni oxiriga etkazaolmadi. Portretda ayolning xamma guzal xislat, fazilatlarini, yarkiragana nam kuzlari kipriklarigacha jonli odam nigoxini kurinishida kilib tasvirlagan. Tasviriy san'tda bunday toj asarning mavjudiligini dunyoda eng kobilyatli, zexnli olim, alomma musavvir kalamiga mansub bulishi xaligacha insonlarni beixtiyor xayratga soladi. XVI asr oxirida kompozitsiya ukuv fani sifatida shakllana boshladi. Buni V. Neleng, S. Vasil'ev kabi metodistlarning Franstiya safaridan sung ukitish sistemasi xakidagi

xisobotlari orkali bilish mumkin. 1882 yili tanikli pedagog – rassom Violie Le Dyukani «Tarixchini tarixi» kitobi rus tiliga tarjima kilgan edi. Bu kitob shaxsiy ish tajribasidan kelib chikib, tasviriy san’atni ukitish metodikasidan suxbat tarzida berilgan. Bu kitobni «Sochinenie» kismida, fantaziya, perspektiva ma’lum konunlarga tayanishini uktirib utilgan. Tasviriy san’atda kompozitsiya masalalari xakida dastlabki metodik bayonnoma muallifi amerikalik pedagog –rassom A. Doudir. Bu ukuv kullannmada tasvirda xar xil shakl, tusalarni kogo va matoga tugri joylashtirish, kogo xajmi va formatiga aloxida axamiyat bergan. Tasviriy san’atda yangi impressionizm okimining paydo bulishi – rang tasvirda yangilanishga vosita buldi, san’atni oldinga rivojlanishiga turtki vazifasini utadi. Impressionistlar rang politrasi boyitdi. XX asr boshlarida ular Evropa davlatlarida va Rossiyada xar –xil badiiy okimlar paydo bula boshladi: futurizm, kubizm, ekspressionizm, dadaizm, syurealizmlar shular jumlasidandir. Tartibsiz muloxaza, karama - karshi fikrlarni kurashi tasviriy san’at va kompozitsiyani ukitish metodikasiga chalkashlik va tartibsizlik olib kirdi. XX asrning birinchi chorasida tasviriy san’at ular Evropa va Amerikada berk kuchaga kirib kolgan edi. Shu bilan birga kullannmada san’at maktablarida rassomlar realistik san’at yulida kompozitsiya nazariyasini urganishni davom ettirdilar. Rossiya tasviriy san’atida XVIII asrgacha ikona rangtasviri tarakkiy etgan edi. Eng kobiliyatli rus ikonachi rassomlardan biri Andrey Rublev edi. Uning mashxur «Troista»si ikona janridagi kadimgi klassik kompozitsiya namunalaridan biri xisoblanadi. Kompozitsiyada bu rassom gavda xolatinig anik tasviri, rang garmoniyasi va axlitligiga erishdi. XVIII asr Rus tasviriy san’atida, realistik badiiy maktabning asoschilari A. P. Losenko, G. I. Ugryumovlar xisoblanadilar. Rossiyada Peterburg Badiiy akademiyasini bitirgan A. Ivanov, A. Egorov, V. Shebuev, A. Venestiyanov, K. Bryullovlar uz jodiy va pedagoglik faoliyatlarida kompozitsiya muammolariga kuprok axamiyat berib, tasviriy san’atni yangi pogonaga kutardilar. 1757 yili tashkil topgan Peterburg Badiiy akademiyasida mutaxassislik favklarini ukitishni muntazam tarzda yulga kuyilishi, Rossiya tasviriy san’atini rivojlanishiga uz ta’sirini kursatdi. Mashxur

rassom va pedagog A. P. Losenko uz faoliyatida ijodiy yondoshib kompozitsiya masalalari ustida ishladi. U xamma tasviriy vositalar asar goyasiga, mazmuniga karatilgan bulishini ta'kidladi. Losenko uz vaktida akademik ta'lim metodini yangilashni angladi va yangi uslub-metodikasini ishlab chikdi. Chunki Bolon maktabi tizimida bulib, birinchi navbatda ulug rassomlarga taklid kilinar edi. Uning yaratgan Akademiya ukitish nazariyasi XIXasr urtalarigacha davom etdi. Losenko davridayok Rossiya Badiiy Akademiyasi dovrigi va obruyi dunyoga tarkaldi. A. P. Losenko yukori saviyali kompozitsiya ustasi edi. Buni «Vladimir pered Rognedoy» kartinasi misolida kurish mumkin. Losenko dars bergan tarixiy janr klassida kartina tuzilishi masalalariga kup e'tibor berilar edi. P. I. Sokolov, G. I. Ugryumov, O. A. Kiprenskiy, K. P. Bryullov kabi ulug rassom pedagoglar A. P. Losenko ukib ta'lim oldilar. Losenko boshlagan ishni Akademiya'dagi pedagogik faoliyatini G. I. Kozlov, P. I. Sokolov ( 1782 y) kabilar davom ettirdilar. Ayniksa Ugryumov, Losenko boshlagan tarixiy janr klassida kompozitsiyani davom ettirdi, kompozitsiya nazariyasini mukammallashtirdi. Uning ukuvchilaridan A. Ivanov, A. Egorov, V. Shebuevlar xam ustozning uslublarini davom ettirdilar.

Shunday kilib rassom-pedagog va metodistlar XVIII va XIX asr boshlarida tasviriy san'at va kompozitsiyani ukuv predmet sifatida rus badiiy maktabda ukutilishni mumkiligini isbotladilar. Bu yunalish rangtasvir kompozitsiyasi ustasi K. Bryullov tomonidan kullab kuvvatlandi.

K. Bryullov uzining pedagogik va ijodiy faoliyatida gavdaning plastik tuzilishiga, asarda kompozitsiya muvozanatini xakkaniy tasvirlashga axamiyat berdi.

«Pompeyning oxirgi kuni» asari bunga yorokin misol bula oladi. Asarda insonni xayotda sodir buladigan xafli, fojiali dramatik dakikalardagi xolati, tabiatda chakmok natijasidagi kuchli yorug nurlari ostida bulayotgan t'sirchan vokea kontrast ranglarda tasvirlangan.

Odamlar kuzidagi kurkinch, ularning guzal nigoxi, xatti xarakatlari, shijoatli onalar badiiy yuksak moxorat bilan, yukori darajada jozibali tasavvur etilgan. Bryullov bu asarida badiiy Akademiyaning yuksak ananalarini davom ettirdi.

XIX asrning ikkinchi yarmida ilgor ma'rifatli rus rassomlari tashki dunyoni xayotda tugri tasvirlash uchun kurash olib bordilar. Realistik san'atning rivojlanishiga I.N. Kramskoy boshlik sayyor rassomlar katta ta'sir kursatdilar.

Asosan xalk manfaatini kuzlab, xayotdagi muxim vokealarni kuzatib, ijod kildilar, asarni goyasiga axamiyat berdilar. Kuplab rus rassomlarining ustozlari P.P. Chistyakov mutaxassislik fanlarni ukitishning yangi tizimini yaratdi.

Realistik san'atning buyuk namoyondasi I.E.Repin kompazistiyani nazariy va amaliy rivojlanishiga muxim xissa kushdi. Shuningdek tarixiy janrda xar tomonlama yangi novatorlik vositalari bilan V.Surikov rus rassomlariga uz ta'sirini utkazdi. U kompozitsiya eskizini bajarishga aloxida berdi. Uylagan mavzu rassom tasavvurida tiklansa u darrov kuliga kalam, kumir, muykalam olib eskiz bajarishga kirishardi. Ayniksa «Boyarina Merozova» kartinasi uchun, uylab, yuzlab kalamlavxa, ranglavxa, eskizlar bajargan. U mavzuga oid bulib utgan tarixiy vokealarni sinchiklab urganadi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Rossiya san'atida va ukitish tizimida ilgor – progressiv yunalish bilan bir katorda reakstion kuchlar ta'sirida, burjua falsafasiga taklid kilgan yangilik – «novizna» okismi xali paydo bula boshladi.

Maishiy janrdagi kartina mazmuni, kompozitsiyaning badiiy yuksak yaxlitligi asta – sekin uz kuchini yukota bordi. Buyuk pedagog rassom D.N.kardovskiy bularga karshi murosasiz kurash olib bordi va realizm pozistiyasida turib ximoya kildi.D.Kardovskiy xam P.Chistyakov kabi tasviriy san'atdagi ardokli pedagog – rassomlardan edi.V. Efanov, D.Shmarinov kabi kuplab Rossiya rassomlari uning ustaxonasida yaxshi ta'lim oldilar.Kup yillik pedagoglik faoliyati mobaynida kalamtasvir va kompozitsiyadan mukammal ukuv tizimi shakllandi. Kompozitsiya xayot xodisalarini obrazli aks ettiruvchi vosita bulib talabalardan ma'lum farmatda, oddiydan murakkab eskizlar bajarishga utish prinstiplarini kuydi. Keyinchalik



kompozitsiyani nazariyasi, amaliyoti va ularni ukitish metodikasini asosiy prinstiplarini ishlab chikishda V. Favorskiy, A. Deyneka, K.Yuon, E.Kibrik, A.Alpatov, G.Nisskiy, F. Reshetnikov, D. Shmarinov kabi ulug rus rassomlari uz xissalarini kushdilar.Bularning ichida K.Yuon, A. Deyneka, E. Kibrik, M. Alpatovlarning koldirilgan ijodiy va ilmiy nazariyasi tadkikotlarini aloxida ta'kidlab utish urinli.Kompozitsiya nazariy asoslarni rivojlantirishda salmokli xissa kushgan rassomlardan yana biri Konstantin Yuondir.Ulug rassomlarni asarlari misolida kompozitsiya tuzilishini taxlil kilib: kontrast, vertikal, gorizontal, dioganal simmetriya, assimetriya, aylana, uchburchak, muvozanat, ritm yaxlitlik, dinamik, statik xolat, yorug, rang koloriti, kurish nuktasi, gorizont, kompazistiya plani, maxobatlilik, dekorativlik kabi tasvir uslublarini kursatib berdi. K.Yuon kompazistiyani ukitish metodikasi saviyasini yukori darajaga kuyish kerak deb xisoblardi.

## **II.BOB. Tarixiy voqelikda Buxoro arxitektura obidalarini rang-tasvirda aks ettirishni amalga oshirish**

### **2.1.Rassomlar ijodida Buxoro manzarasi.**

Buxoro O'rta Osiyoning eng qadimiy madaniy markazlaridan biri. Tarixiy dalillarga asoslanib ona sharif shahonimiz Amudaryo vohasida Zarafshon daryosi atrofida joylashganligi barchaga ma'lum. Aslida Buxoro geografik joylashuviga ko'ra Karmanadan (Hozirgi Navoiy viloyatiga qarashli) Zarafshongacha bo'lgan hududni tashkil etadi. Shaharning nomi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, bu nom mashhurlikni bildirib "Budda monastiri" degan ma'noni anglatgan. Arab tarixchisi numidkent Tabarining ma'lumoti bo'yicha "Xudolar va dinni targ'ib qiluvchilar makoni", keyinroq esa "O'rta Osiyo madinasi" nomi bilan yuritilgan ekan.

IV asrga kelib, so'g'dcha Numidkent, VII-VIII asrlarda Puxo, Bugo nomlari bilan yuritilgan. Buxoroga qarashli hudud Karmana Malik cho'lidan, Nurota, Chandirko'lgacha bo'lgan maydonni tashkil etgan.

Mana shu aziz tuproqda ota-bobolarimiz, ajdodlarimiz ulkan bunyodkorlik ishlarini bajarishga ulgurishgan.. boshidan ko'p kulfatlarni kechirgan Buxoro xalqi baribir o'z urf-odat va qadriyatlarini saqlab qolishga ulgurdi.

Buxoro madaniy hayotidan hikoya qiluvchi yoki ma'lumot beruvchi inshoot Varaxsho saroyi bo'lib, u VI- VII asrlarda bunyod etilgan. Saroy qoldiqlari arxeologlar tomonidan. Sinchiklab o'rganilib, quyidagicha xulosaga kelingan: shaharda ajoyib mahalliy markazlar mavjud bo'lib, hunarmandchilik va me'morchilik, kulolchilik, zardo'zlik, kashtachilik kabilar beqiyos darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Saroy devorlari ulkan relefli uymakorlikda bajarilibgina qolmay, mahobatli rangtasvirda bezatilgan pannolar, dekorativ naqshlar har qanday insonni hayratga soladi. Ayniqsa, geometrik, uchburchakli, to'rtburchakli, rombli naqshlar binoning yagona maqsadli bezagiga aylanib, nafislikka xizmat qilishi maqtovga sazovordir. Bunday tasvirlar uzum novdalari, lolaqizg'aldoq kabi gulli barglar kompozitsiyasini tashkil etgan. Shuningdek devorlarda gorelofda bajarilgan devoriy haykaltaroshlik namunalari ma'lum bir hodisaga bag'ishlanganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. "Nayza sanchilgan qo'chqor", "Ayolning bosh qismi" kabilar ganchda bajarilganligi haykaltaroshlik san'atini rivojidan xabar beradi. Devoriy surat "Siyovush" marsiyasi esa devoriy rangtasvir ko'rinishlarini anglatadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bizning asrimizga etib kelguncha ko'p sonli bosqinchilik urushlari, yong'inlar, talon-tarojlar madaniyatimiz yuksalishiga anchagina talofat etkazgan bo'lsa-da, baribir anchagina milliy qadriyatlar, urf-odatlar saqlanib milliy madaniyatimiz haqida ma'lumotlar qoldirgan.

Manzara mavzusida yozilgan asarlarda borliq, tabiatning nozik ko'rinishlari haqqoniy tasvirlanadi. Manzarada faqatgina voqea yoki hodisalargina emas, balki musavvirning ichki kechinmalari ham o'z ifodasini topadi. Ayrim musavvirilar mavzularni vodiylardagi tog'u-toshlardan tasvirlashga ishqiboz bo'lsalar, boshqalari, dengiz manzarasi, shahar yoki me'moriy manzaralarini tasvirlashga intiladilar. Bu borada Ural Tansiqboevning "O'zbekistonda mart", "Jonajon o'lka", "Mening qo'shig'im", N.Kashinaning "Tog'da bahor", Z.Inog'omoaning "Arpa

o'rimi", "Choyga", R.Temurovning "Bibixonimda bahor", "Ulug'bek madrasasi" asarlarining yaratilishi musavvirlarga anchagina shuxrat keltirgan.

Aslida inson ham tabiatning bir bo'lagi, etni suyakdan ajratib bo'lmagani kabi insonni ham tabiatdan ajratib qo'yish kechirib bo'lmas muammolarga etaklashi mumkin. Shu bois ham tasvirlarda tabiat ham, inson ham chambarchas bog'liq bo'lib, biri-birini to'ldirib boradi. Bunday holatni Leonardo da Vinchining "Mona Liza", Rafael Santining "Mariyaning nikohlanishi" asarlarida kuzatish tomoshabinda juda katta taassurot qoldirishi tabiiy.

Ayniqsa, Mona Liza yoki Liza xonim portretini kuzatib, portret kompozitsiyasining yagona rang uyg'unligiga keltirilishi har qanday tomoshabinni hayajonga soladi. Sokin manzara fonida joylashtirilgan Liza xonim jiddiy va yashirin tabassum bilan bizni kuzatyapti. Orqada tiniq va musaffo yarim-yashil osmon, yashil maysalar qoplangan tog'ning yuqori qismi qor qoplangan bo'lsa-da, yashilroq rangda tovlanadi. Oqayotgan suv toshu-maysalarga urilib yashil tus hosil qilyapti. Qolaversa, Liza xonimning ustki kiyimi ham yumshoq yashil kimxob tusida tovlanib barcha ranglarning yagona maqsadga bo'ysundirilishini ta'minlayapti.

R.Chorievning "Boysun madonnasi", "Qashqadaryolik kelin", R.Axmedovning "Tong, onalik mehri" nomli kartinalari ham aynan manzaradagi chiroy, joziba orqali portretda ilgari surilgan g'oyani yuzaga chiqaryapti. Bunday asarlar sirasiga kiruvchi kartinalarda tabiat va onalik mehrining kuylanishi bilan muhim o'rin egallaydi.

Umuman olganda, manzara mavzusida yaratilgan asarlar ilgari surilgan g'oyaning naqadar muhimligini ko'rsatibgina qolmay, zamondoshlarimiz his-tuyg'ularini, orzu-istaklarini, aniqrog'i insonning tabiatga bo'lgan munosabatlarini nechog'lik yuqori ekanligini o'zida ifoda etadi. Bu esa o'z navbatida inson va tabiat kayfiyati bilan bog'liq ravishda goh quvnoq, goh jarangdor tarzda paydo bo'lib barchani o'ziga maftun etadi.

Buxoro! Bu nomni aytish bilan ko'z o'ngimizda shaharning osmono'par minorasi, Registon, Chor-minor, Ulug'bek madrasasi, Labi-havuz ansambli va

qator tarixiy obidalarini, zamonaviy binolari va shaharning uzun egri-bugri tor ko'chalari, ota-bobolarimiz go'yo ko'hna shahardek, shuningdek biz ushbu shahar bilan yonma-yon yurayotgan nevaralarni eslatadi. Keksa va hozirgi avlod....

Buxoroni tomosha qilgan odamning kayfiyati o'zgaradi. Bu shahar insonga ruh va quvvat ato etadi. Bular boqiylik ramzi, inson hayotining mazmuniga ishora. Ularga qarab odamning yashagisi, yashaganda ham mazmunli yashagisi keladi. Shu bois ham bu shahar qiyofasi minglab rassom mo'yqalamida, shoirlar dostonida madh etilyapti. Ko'p sonli kartinalar va she'riy dostonlar yaratilyapti.

Ma'naviyati yuksak har bir xalq o'zining qadriyatlarini, an'analarini hurmat qilgan, ularga hurmat-ehтиrom bilan qaragan boshqa millat vakilini o'z farzandi deb biladi, sevadi, ardoqladi. Rossiyalik Pavel Petrovich Benkov ana shunday hurmatga sazovor ulug' rassomlardan biri edi. P.P.Benkov 1879 yili Qozon shahrida tug'ilgan. Olti yoshidan rasm chiza boshlagan. Dastlab shahar tasviriy san'at maktabida, keyin badiiy bilim yurtida o'qigan. Bu erda unga G.Zaleman, Ya.Sioglinский, B.Kustodievlar saboq berishgan. ayniqsa, bezakchi rassom D.Kardovskiy unda unutilmas taassurot qoldirgan. Pavel buyuk rassom Repin ustaxonasiga ham qatnagan. 1906 yilda rassomlik bilim yurtini imtiyozli tugatgan. Keyin salkam bir yil Parijda Jyulening shaxsiy maktabida tahsil olgan. Luvr va Lyuksemburg muzeylaridagi bebaho durdona asarlarni ko'rgan. Ispaniyaga borib, velaskes ishlarini o'rgangan. Madaniyat va san'at beshiklaridan biri Italiyada diplom ishini tugatgan. 1909 yilda yosh rassom shirin orzu va ulkan rejalar bilan ona Vataniga qaytgan.

U Qozon shahridagi rassomlik bilim yurtida dars berib, ijodiy ishlarni davom ettirgan. Qozon opera teatriga dekorastiyalar ishlagan, ko'plab portret va manzaralar yaratgan. U o'shanda odamlar qiyofasini chizarkan, mo'yqalami engil, ravon bo'layotganligini his qilgan. Oddiy odamlarning soddaligi, ishonuvchanligi rassomni maftun etgan. "Keksa tatar", "Tatar ishchisi", "Tatar qizi" singari qator asarlar yaratgan. Uning bu davrda ishlagan asarlari orasida, ayniqsa, "Lo'li qiz portreti" diqqatni jalb etadi.

O'zbekistonga kelganida, bu erdagi insoniy qadriyatlar, xalqning bag'rikengligi, bu go'zal o'lka tabiatining ajoyibligi rassomni maftun qilib qo'ydi. Samarqandda yashab qoldi. Buxoro, Xiva shaharlariga tez-tez ijodiy safar qildi.

Rassomning Buxoroga qilgan safari ancha samarali bo'lgan edi. Bu erda naturadan ishlash usuli plener rangtasvirining o'ziga xos xususiyatlarini taqozo etdi. Uni mukammal o'zlashtirgani bois, P.P. Benkov plener bo'yicha mohir rassom bo'lib etishdi va tom ma'noda O'zbekistonda plener rangtasvir maktabini yaratdi. Uning "Labihovuz", "Buxoro amaldori", "Bo'yoqchi yahudiy portreti", "Tojik portreti", "Kuz. Hovuz bo'yida" singari durdona asarlari ochiq havoda – plenerda ishlangan.

P.P. Benkov rassomlar uchun bu usul naqadar samarali ekanligini isbotlagan. Rassom "Hovuz oldidagi meshkoblar", "Yopiq ko'cha", "Yopiq bozor" kabi qator asarlari va etyudlarida shahar ko'chalari, bozor rastalari, choyxonalar, ko'chalar, kishilar qiyofasini, Buxoroning o'ziga xos muhitini aniq aks ettirgan. Uning etyud sifatida bevosita hayotdan olib ishlangan izlanishlari tugallangan kartina tusini olgan. Masalan "Ko'cha mirzasi", "Sharq ko'chasi" va boshqalar. Natura ob'ekti bilan ishlash 2-3 kunga cho'zilar, bir necha seans davom etar edi.

P.P. Benkov rang berishda ham o'ziga xos usul izlagan. Uni sayyor yoki boshqa mamlakatdan kelgan musofir rassomlar ichida bu qadim zaminni xolis niyat bilan ochiq va yorqin bo'yoqlarda tasvirlashga intilgan yagona rassom deyish o'rinli. P.P. Benkov asarlari polifonik ohanglarga ega, murakkab va nafis ranglarning yorug'lik va havo muhitidagi kumushsimon tebranishlari yuksak mahorat bilan ifodalanadi. Ammo o'sha paytlarda ayni izlanishlari uchun rassomga "eskizchi, asarlarida kompozition echim tugal emas, shakllari nihoyasiga etmagan" deb ta'namalommat yog'dirishgan. Bu etmaganday, uni ekzotikaga, impressionistik ishlash usuliga berilganlikda ayblashgan.

Rassom o'sha paytda hayotni qanday ko'rgan bo'lsa, uni shunday tasvirlagan. Uning asarlari bugungi kunda tariximizning o'ziga xos manzarasi kabi ko'rinadi. Undaki ekzotika unsurlari shunchaki fon sifatida namoyon bo'ladi. U

Parijdagi Julen studiyasida impressionizm bilan shug'ullangan bo'lsa ham, undan qoniqmagan edi.

30 – yillarda katta o'zgarishlar ro'y berdi. P.P.Benkov bunday o'zgarishlarning shohidi sifatida yangilanishlarni ilg'adi, shahar syujetlari va portretlarida yangicha timsollarni gavdalantirdi. Masalan, “Buxorodagi qizil choyxona”, “Y.Oxunboboev portreti” va boshqalar. Ularda birinchi galda kelajakka ishonch va shu zamon odamlariga mehr hissi bo'rtib turadi.

1930 yilda P.P.Benkov bir oz muddat Xivada yashaydi. Bu sharqona shaharning ko'chalari, bozorlari, choyxonalari, meva va sabzavotlar rastalarini kuzatdi. Xivada ishlagan asarlarida rassom o'zini mohir kolorist sifatidagi mahoratini namoyon etdi. U asarlarida Xivaga xos tabiiy ranglar: sarg'img'ir, to'q sariq, jigarrangning betakror qirralari, quyosh nurlaridan sarg'aygan manzaralarni aks ettirdi. Ularda rassomning avvalgi asarlaridagi kumushsimon yorug'lik tebranishlari emas, balki oftobda toblangan ranglar namoyondir.”Xorazmda chig'ir”, “Sabzavot bozori”, “Minorali ko'cha” kabi polotnolar bunga misol bo'la oladi. Rassom Xivada ishlagan asarlarida tipajlarning o'ziga xos xususiyatlari, yashayotgan muhiti, ularning kiyim-kechak va liboslaridagi etnografik unsurlar, kishilarning o'tirib-turishlarini aniq gavdalantiradi.”Xivalik ip yigiruvchi ayollar”, “Xivalik ayol portreti”, “Xivalik qiz” kabi asarlari buning isbotidir. “Xivalik qiz”(1930y) asarini P.P.Benkov ijodining yuksak cho'qqilaridan biri deyish mumkin. Moskvadagi Tretyakov galereyasida saqlanadigan bu asar naturadan chizilgan. Unda hayot lavhasi yuksak badiiy mahorat bilan aks ettirilgan. Bir qaraganda rassom bu asarida milliy, maishiy turmushini aks ettirish bilan chegaralangandek tuyuladi. Darhaqiqat, hayotga ekzotika sifatida yuzaki qarash, voqelik mohiyatini anglamasdan shaklga berilib ketish o'tgan asr yigirmanchi yillari rangtasviri uchun xos hodisa. Ammo bu asarga sinchiklab razm solinsa, rassom hayotni ekzotika sifatida emas, balki iliq bir samimiyat va mehr bilan ifodalangani ayon bo'ladi.

1931 yilda benkov Samarqandga keldi. 20- yillarda Samarqand badiiy hayot markaziga aylangan edi. Bu erda Rossiya va Sibir taraflaridan kelgan bir guruh

rassomlar yashayotgan edi. Ular zamonaviy, yangi asr san'atini yaratishni asosiy maqsad qilib qo'yishgan va shuning uchun asarlarida G'arbiy Evropaning postimpressionistik tendensiyalari va rus avangardini mahalliy sharqona an'analar bilan uyg'unlashtirishga intilishardi. Afsuski siyosiy talablar tufayli Samarqanddagi bu ijodiy guruh qariyb tarqalib ketdi. Chunki bu paytda "Sostialistik realizm" deb nom olgan uslub yuzaga kelgan va 1932 yilda ijodiy uyushmalar, jumladan, rassomlar uyushmasi tuzilib, har xil ijodiy birlashmalar va guruhlariga chek qo'yildi. 1933 yilda O'zbekiston rassomlar uyushmasining tashkiliy qo'mitasi tuzilib P.P.Benkov ham uning tarkibiga bo'lgan. Keyinchalik esa u Samarqand badiiy jamoatchiligining muxtor vakili sifatida faoliyat olib borgan.

Partiyaning g'oyaviy talablari Benkovni ham chetlab o'tmagan. 1931-1940 yillarda u dolzarb mavzularga bag'ishlab, yirik hajmli "Hujum", "Shoyi to'qish fabrikasi", "Registonda 8 - mart", "O'zbekistonda paxtani chopiq qilish", "Rabot qurilishi" kabi asarlar yaratgan. Rassom bu kartinalarini yaratish uchun bir necha yil izlangan. Ular rangga tasvir va kompozitsion echimi jihatidan ham o'ziga xos.

Rassom dolzarb mavzularda kartina yaratishda plener uslubi qo'l kelgan. Lekin P.P.Benkov, yirik ko'p figurali kompozitsiyalarda ham o'z uslubini saqlab qolgan.

1938 yilda unga O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi unvoni berilgan.

Urush yillarida rassom asarlarida Samarqand shahrining rang-barang manzaralari va undagi turfa lavhalarini aks ettirgan. Samarqand ikkinchi jahon urushi paytida evakuatsiya qilingan minglab kishilar, jumladan, Butunrossiya badiiy akademiyasi xodimlari, Moskva, Kiev va Xarkov badiiy institutlari professor-o'qituvchilari uchun boshpana bo'lgan edi. Rassom ularga qo'lidan kelgancha ko'maklashadi.

"Qahramonni kutib olish", "Fronidan xat2", "Yangi oilada", "Jangchiga sovg'a", "Yana ona yurtda" kabi kartinalarini yaratdi. Uning "Qahramonning onasi" asarida o'zbek ayoli qiyofasi, undagi g'urur va kelajakka ishonch tuyg'usi yorqin ifodalangan.

Urushning so'nggi yillarida Pavel Petrovichning sog'ligi yomonlashadi. Shunga qaramasdan u avvalgidek juda ko'p ishlagan, vaqtdan unumli foydalanishga harakat qiladi. Samarqand manzaralari va kishilari hayoti tasvirlangan turkum asarlar (1943-1948) yaratadi.

P.P. Benkov yirik portret ustasi. U an'anaviy Evropa rassomligi maktabida tarbiya topgan. Ammo rassom ijodida qiziq bir jihat seziladi. Rassomning "Jangchiga sovg'a" asarida so'rida o'tirgan ikki o'zbek qizi tasvirlangan. Ulardan biri kashta tikmoqda. Ikkinchisi esa tabiatdan zavqlangan cha bir nuqtaga tikilib qolgan. P.P. Benkovning ushbu portreti bilan Kamoliddin Bexzodning "Shayboniyxon" portreti o'rtasida o'xshashlik seziladi. Bu portretlarning chizilishi va ranglarni qo'llashda seziladi. Ma'lumki Evropa rassomlik maktabiga mansub rassomlar o'z asarlarida oq bilan qora yoki qizil bilan qora bo'yoqni hech qachon yonma-yon ishlatishmaydi. "Jangchiga sovg'a" asarida esa qizlarning kiyimi qora-qizil, qora-oq ranglarda ishlangan. "Shayboniyxon" da ham tasvirlanuvchining kiyimlari oq-qizil, qora-qizil rangda ifodalangan. Pavel Petrovich Benkov O'rta Osiyoga kelgach, qadimiy qo'lyozmalarga ziynat sifatida ishlangan miniatyuralar bilan tanishgan, ulardan o'rgangan. Shuningdek, bu ulug' rassom Franstiyada Matiss, Sezann Van Gog kabi mashhur san'atkorlarning Bexzod an'alaridan ilhomlanib yaratgan ijod namunalarini o'z ko'zi bilan ko'rgan.

Umuman, P. Benkov o'zbek voqeligini teran his qilib uni keng ko'lamda, tipik tarzda, tabiatdagi ranglardan unumli foydalangan holda aks ettirgan. Mashhur rassom Abdulhaq Abdullaev uning shogirdlaridan biri edi.

Manzara – tasviriy san'atning mustaqil yo'nalishi bo'lib, tabiat go'zalligini tarannum etuvchi rangtasvir janridir.

Albatta, bu janrni grafikada ham uchratish mumkin, lekin rangtasvirda uning ta'sirchan vositalari o'ta jozibali, yanada ko'rkam xususiyatlarni o'zida namoyon etadi.

Aslida, manzara – tasviriy san'atning eng qadimiy janrlaridan biri bo'lib, tarixiy, maishiy hatto konkret janrida odam fon sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.. manzara janrining o'zta nozik xususiyatlarga boy chiroyini qadimgi



Xitoy tasviriy san'atida kuzatish mumkin. Suv bo'yoqda yozilgan manzaralar o'ta nafisligi bilan barchani o'ziga rom etadi. Manzaraning diltortar xususiyatlari shaffof suvda ham, yashil libosga burkangan ulkan yoki mo'jaz daraxt, shuningdek, oppoq qorli tog'larda o'ziga jozibasi bilan barchani o'ziga maftun etadi.

Evropa rangtasvirida esa bunday xususiyatlar XVI-XVII asrlarda yuzaga keldi. Evropaliklar asarlarida manzara mavzusi realistik yondashuvga asoslangan. Ayniqsa, mifologik, tarixiy yoki botal janrlarda yozilgan tasvirlarda manzara bevosita voqeaning asl hoyasini ochib berishga xizmat qilinganligidan dalolat beradi.

Golland manzaranavis rassomlari esa bu borada ulkan muvaffaqiyatlarga erishganlar. Ular yozgan kartinalar o'zida milliylik ruhi realistik tarzda etkazilib, tabiatda yuz berayotgan har qanday hodisalar, ob-havo, to'fon kabilar o'ta mahorat ila yagona maqsadga bo'ysundirilgan. Bu toifaga kiruvchi asarni Yan van Goyenning "Neymegendan Vall daryosining ko'rinishi" kartinasida ko'rish fikrimiz guvohi bo'ladi.

Kartinada yaylovda o'tlayotgan qo'y-sigirlar plastikasi o'ta mohirona etkazilgan. Manzara motivlari Reysdal kartinalarida chuqur dramatik tarzda: botqoqlik, yalanglik, kenglik, jarlik kabilar yilning to'rt faslida va turli ob-havo sharoitida etkazilishi bilan juda ham muhimdir.

Masalan, "O'rmon botqog'i", "Yahudiylar qabristoni", "Dengiz qirg'og'i" o'zining mahobatligi va koloriti bilan bu janrning naqadar yuqoriga intilganligidan guvohlik beradi.

Manzara janri o'z navbatida nafaqat tashqi dunyo go'zalligini aks ettiribgina qolmay, balki insonga ichki ruhiy kayfiyat bag'ishlovchi kuchga ega ekanligi, bu esa rassomning asarida tabiatga nisbatan olamni o'ta nozik hissiyotlarini yuzaga chiqarishida ko'maklashuvchi vosita ekanligidan dalolat beradi.

Tabiat manzarasi inson shaxsi, aql zakovatini, ichki tuyg'ularini tasvir orqali, qo'shiq singari kuylaydi, aniqrog'i tabiatning obrazini yaratadi.

Manzara janrida yaratilgan kompozitsiyalar insonning tabiatga bo'lgan munosabatlarini ijobiy tarzda shakllantirib, tabiatga muhabbat va go'zallik kabi fazilatlarini namoyon etadi.

Bunday asarlar rus rassom ijodida yaqqol ko'zga tashlanib, kishini benihoyat xursand qiladi. I.Levitan "Oltin kuz", "Abadiy sokinlik uzra", I.Shishkin "O'rmon kengliklari", V.Meshkov "Ural haqida uylar" kabi asarlar aynan yuqorida qayd qilingan bayonlarda o'z ifodasini topgan.

O'rta Osiyo rangtasvirining ilk lavhalari garchi miniatyura yo'nalishida yuzaga kelgan bo'lsa-da, yaratilgan har bir namuna orqa fonda tabiat manzarasi bilan har qanday tomoshabinni o'ziga maftun etadi. K.Bexzod, M.Muzahhib, M.Samarqandiyalar qoldirgan meros o'zida ulkan ko'rinishlar, bazm yoki marosimlar barchasi chiroyli manzara fonida o'z ifodasini topgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida rus rassomlarining Turkistonga tashrifi bevosita davr taqozosiga boyitilgan taqdirlar bilan bog'liq. Bu borada V.Verezhaginining "Turkiston turkum asarlari" aniq dalillarga asoslangan lavhalarni o'zida namoyon etgan.

XX asrning 30-40 yillar o'zbek rangtasvirida ulkan o'zgarishlar yuzaga keldi. Bu borada P.Benkov, "Bibixonim"da bahor", "Shaftoli gulladi", "Tokzorli hovli", Buxoro va Xiva, Samarqand ko'chalarining manzarasi tarixiy dalillarga boy tarzda O'zbekiston tabiatini tarannum etdi.

XX asrning 40 yillariga kelib asl o'zbek rassomlari rangtasvir minbariga kirib kelishdi. Misol tariqasida, Akram Siddiqiy "To'y", L.Abdullaev "Paxta terimi", Roziqov "Maktabga", U.Tansiqboev "Choyxona", "Issiqko'l oqshomi", "Jonajon o'lka", N.Qoraxonning "Oltin kuz" asarlari O'zbekiston tabiatini naqadar go'zal ekanligini o'zida ifoda eta oldi. Bu asarlarda bo'yoqlarning yorqinligi, milliy kolorit o'z tabiatini go'zalligini takrorlanmas darajada ekanligini ko'z-ko'z qiladi.

Ayni paytda ular ulkan mas'uliyatni o'zlarida his qilgan holda ona yurtga, uning tabiatiga bo'lgan munosabatlarini bildiribgina qolmay yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsata oldilar.

## **2.2. Mavzu buyicha amaliy ishlash jarayonining borishi: eskiz,**

## **qoralama va ranglavhalar.**

Har qanday rassom yoki shu soxa bilan shug'ullanuvchi shaxs o'z oldiga aniq maqsad qo'yadi. Qo'yilgan maqsadning muammosi esa goyani yuzaga chiqarish bilan bogliq xususiyatni ta'minlaydi. Bu borada nimalarga e'tibor ajratish kerak:

1. Birinchi navbatda mavzuni aniq tanlashi va ish joyini ta'minlashi zarur
2. Mavzu buyicha bir necha koralama, ranglavxalar bajarish nazarda tutiladi.

Albatta kilingan xar bir ish maxsuli maqsadli goyani yuzaga chikarishi uchun xizmat kiladi. Bu ishlar amalga oshgach, ishlar yaxshilab kuzatilib eng yaxshi variant va eng samarali obektlari yagona maqsadga buysindiriladi.

Ish buyicha yagona karorga kelingach, dastlabki ishni kalam, ko'mir kabi yoki sangi va postelda bajarsa foydadan xoli bulmaydi. Keyin esa bajarilgan ish ulchami aniklanib reyklar tayyorlanadi. Ishni mato yoki kartonga xam bajarish mumkin agar u matoda bajarilsa mato ranga turt tomondan dastlab karama karshi tomondan mustaxkam tortilib mixlanadi sungra elimli grunt bilan surtib ishni bajarish mumkin.

Buning uchun muvaffakiyatli variant kalamni bosmay engil tarzda tasvir matoga kuchiriladi. Tasvirni rang bilan bajarish korongi obektlardan boshlanib yorug joylarga extiyotkorlik bilan ishlov beriladi. Ish jarayonida xar bir obektni obektdagi buyumning shakli tus darajasi eng kizikarli va uziga jalb kiladigan xususiyatlarni yuzaga chikarish aloxida axamiyat kasb etadi. Chunki obekt va uning atrofidagi narsalardagi rang munosabatlari uygunligi yagona kaloritni yuzaga chikarilishini nazardan kochirmaslik kerak ayniksa buyoklar eritmasi obekt buylab okib ish sifatini buzmasligini ta'minlashi bu uchun eritmani m'yorida tayyorlash, muykalamni tez-tez yuvib artib turish tavsiya etiladi. Buyokning xaddan tashkari kup yoki yupka kuyish xam uncha chiroyli natija bermaydi. Ish jarayori akvarel va moy buyoklarda bajarilishiga karab murakkab yoki engil kechadi. Yukorida kayd kilinganlar amalga oshgach bajarilgan ish obdon sinchiklab urganiladi, kamchiliklar bartaraf kilinib umulashtiriladi.

Endi muykalamlarning xususiyatlari uzgacha ular o'tkir uchli , tekis yoki aylana shaklda buladi, tabiiy moy buyoklar xam akvarel buyogi kabi maxsus

tyubiklarda saklanadi. Eritgichlar, rostvoritel, razbovitel, lyanoviy masla kabilarni tashkil etadi.

Oq bo'yoq boshqalarga nisbatan uch marta ko'p ishlatiladi va rangning jozibadorligini oshiradi. Fikrimiz dalili sifati klassik rassomlar ishini kuzatish foydadan xoli emas masalan: Repin, Benkov, Rembrandt, Rubens kabi rassomlar ishida bu tartibdagi effektlar juda urinli joy olgan. Shuningdek kishini diqqatini uziga jalb etadi. Bunday xolatni uzok emas Buxoro san'at muzeyida namoishga kuyilgan Benkovning «Buxoro amaldori» asarida yakkol kuzatish mumkin. Ish jarayoni kuyilgan maksad uchun xizmat kilib xar kun ikki soatgacha va bir necha kun anik belglangan vaktlarda davom etishi mumkin. Bu xolat ish tugaguncha davom etadi. Jrayon tugagach xar bir detal sinchiklab kuzatilib uzok yakin ilik yoki sovuk ranglar darajasi me'yoriga keltiriladi. Chunki manzara yozilayotgan vaktida birinchi urta va keyingi planda joylashgan obektning turli tus darajalari rang perspektivasi yoki fazoviy planlikni ta'minlash ishni muvoffakiyatli chikishi uchun tulik xizmat kilishi shart.

Bu esa o'z navbatida rang muammolarini nisbiy xal kilishga, goyaning dolzarb muammosini yuzaga chikarishda zarur konun-koidalarga amal kilishning eng kulay xisoblanidi.

Ish jarayonining borishi bitiruv malakasining amaldagi muammolari va echimi, ko'xna shahar manzarasi.

Men bitiruv malakaviy ishim buyicha aniq ob'ektni tanlashim uchun shaxar buylab uzok sayoxat qildim. Ob'ektlarni sinchiklab urganib, bir necha koralama va rang lavxalar bajardim.

Ob'ektlarda joylashgan past baland kuchalar gavjum odamlar xarakati, eski va yangi binolar kiyofasini kuzatib diqqat nazarimdan kochirmaslikka xarakat kildim. Koramalar bajarish jarayonida ayrim detallarni olib tashlash yoki kushib kompozitsiya mazmunini boyitishga xarakat kildim. Xar kuni tush payti soat 12 dan 14 gacha ish seansini tuzib davom ettirdim.

Ulchamli kogoslarda koralamalar bajardim, varianlarni turli ob'ektlarda tuzib turib urnimniuzgartirishga xarakat kildim. Ishlarni ayrim paytlarda pastdan turib ayrim paytlarda yukoridan turib nuqtalarni tanlashga tugri keldi.

Men mavzuga mos keladigan ob'ektni tanlashim uchun, bu mavzuda yozilgan kartinalar va ular qaysi rassomning mo'yqalamiga taalluqli ekanligini chuqur o'rganib tahlil qildim. Bunday asarlar P.P.Benkov kartinalarida o'ta mohirona bajarilganligini kuzatib maqtovg'a loyiqiligini tan olish joiz.

Rassomlarning izdoshlari, aniqrog'i zamonamiz bilan hamnafas yashab ijod qilayotgan qator buxorolik rassomlar A.Barnoev, V.Barnoev, B.Salomov, M.Abdullaev, M.Sodiqov, X.Boboev, M.Baqoev, A.Enikeev va A.Hazratovlarning Buxoro mavzusidagi yaratgan ko'p sonli ishlarni chuqur tahlil qilib chiqdim. Bu rassomlar yaratgan asarlar shahrimizning kechagi va bugungi kun qiyofasi, tarixiy ahamiyatga molik ekanligi ko'rsata olganligi ko'nglimizga anchagina shukuh, orom bag'ishlaydi. Mazkur rassomlar o'z asarlari orqali Ona shahriga bo'lgan muhabbati, ota-bobolarimiz qo'li bilan bunyod qilingan asori-attiq'a binolarning naqadar mu'tabar ekanligini his etganligi, Vatan tuyg'usi nechog'lik balandligi aynan shu tasvirlar orqali insonlar qalbidan o'rin oladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, shahar ko'chalari bo'ylab kezdin, ayrim baland inshootlar yuqorisidan turib, ob'ektning eng qiziqarli va muhim qismlarini bitiruv malakaviy ishi uchun belgilab, qalam va rangtasvirda bajarishga kirishdim. Shahar ob'ektlarini fotosuratga olib, shu paytgacha o'z ishorasini topgan kartinalar bilan solishtirdim.

Kompozitsiya tanlovidagi muammolar shaharning eng qadimiy va ko'rkam ob'ektlari bo'lib, ularni ayrim baland inshootlar to'sib qo'yardi. Shu bois ham ayrim o'rinlarda o'zgartirishlar kiritishga harakat qildim. Xalaqit beruvchi bo'laklarni olib tashlash, qo'shish kabi tuzatishlarni tasvirda ko'rsatishga harakat qildim. Natijada oxirgi planida shaharning umumiy ko'rinishi sal-pal ko'zga tashlanadigan holatga kelib qoldi. Manzara tasvirida shaharning ayrim ko'rinishlari bilan bir qatorda, o'ziga xos ko'chalar, ular bir-biridan past-balandligi, egri burilishlarni o'zida mujassam qilib o'zgacha sharqona kayfiyat hosil qilyapti.

Ko'chalarda odamlar harakati, milliy kiyimda koloritni tashkil etyapti. Sevimli shahrimiz qiyofasida o'lkaga xos issiq ranglar uyg'unligi yagona koloritga bo'ysundirilgan.

### **2.3. Kompozitsiya tanlovi**

Manzara rangtasvirini boshlang'ich davr dasturini juda yahshi o'zlashtirish uchun quyidagi mavzulardagi vazifalarni bajarish kerak.

1) plener ochii havo sharoitida naturani yaxlit idrok etish va rangdorlik munosabatlari bilan ishlash usuli:

2) asosiy rangdorlik munosabatlarini qabul qilish va tasvirlash:

3) Umumiy tus va rangdorlik holati.

4) Manzara ob'ektlarini kolorit yaxlitligi va yoritilish rangi:

5) Manzaraning mayda bo'laklarini tasviri:

6) Manzarada kenglik.

#### ***Plenerda naturani yaxlit idrok qilish va rang munosabatlari bilan ishlash metodi***

Xaqqoniy tasvirlash etyudning rangdorlik qatorini qurilishiga, naturaning rang munosabatlari mutanosibligiga asoslanadi. Rang munosabatlarini aniqlanishi birvaqtning o'zida manzara obektlarini yaxlit taqqoslashda amalga oshiriladi. Shuning uchun plenerda ishlashdan oldin etiborni mavjud ko'rinishni hammasini yaxlit idrok etishga yo'naltirish muhim. Faqat shunday yaxlit ko'rish manzaraning asosiy obektlari (osmon, er, suv, old va uzoqdagi ko'rinishlari) orasidagi ranglar farqini aniqlashga imkoniyat tug'diradi. Manzaraning (osmon, er, daryo va x.k) barcha obektlarini ishlash vaqtida birdaniga yaxlit ko'rish qiyin. Manzaraning barcha obektlarini yaxlit idrok qilish uchun ancha kengroq ko'rish maydonini talab qiladi. Naturani yaxlit qabul qilishda yordam beradigan mashqlarga intererdagi natyurmortni bajarish, keyin esa, ayvonda yoki ochiq derazani tokchasida turgan gullar dastasini tasvirlashni maslahat beramiz. Mashqlarni bajarishda natyurmort, interer, gullar dastasi, deraza pardasi, deraza orqasidagi shahar ko'rinishlarini ham birdaniga idrok qilib ko'rish juda muhim.

#### ***Asosiy rang munosabatlarni idrok qilish va tasvirlash***

Har qanday tasvir mayda qismlardan emas, yahlitlikdan boshlanadi. Dastlab katta umumiy shakl topiladi, keyin esa mayda bo'laklari ishlanadi. Shu munosabat bilan tasvirlash jarayoni qoidasi mavjud: umumiydan-mayda bo'laklarga va yana umum-lashtirishga. Manzara etyudini ishlash yahlit asosiy munosabatlarni qurishdan manzaraning asosiy obektlari (osmon, er, suv, old, o'rta va olisdagi ko'rinishlari bilan) orasidagi rang farqlaridan boshlanadi.

Manzaraning obektlaridagi asosiy munosabatlarni to'g'ri olinishi keyingi rang qurilishi, mayda bo'laklarni tasvirlashda ishni osonlashtiradi. Agarda asosiy rang munosabatlari noto'g'ri topilgan bo'lsa, reflekslar va ranglardagi nozik farqlar, mayda qismlarni qanchalik sinchiklab (astoydil) bajarilmasin, mazmunli tasvir hosil bo'lmaydi.

Plenerda boshlang'ich ishlar jarayonida kichik etyudlar (15x10sm) bajarish zarur. ƒo'yilmadagi keskin kontrastlar (tusli va rangdorlik) ko'rish taassurotlari bo'yicha taqqoslanadi. Birinchi navbatda old ko'rinish munosabatlari olisdagiga nisbatan aniqlashtiriladi. Qoida bo'yicha kichik o'lchamdagi etyudlarda maydalangan qismlarni idrok etish mumkin emas. Yosh rassom naturani aynan «ko'chirmasdan», balki yaxlit rang munosabatlarida tasvirlaydi.

Tus va rang munosabatlari metodi bilan etyudni bajarish aslida naturadagi och-to'qlik, intensiv va to'q rang dog'larni aniqlashdan boshlanadi. Ular oraliqdagi tus va rang dog'larini kuchi jixatdan taqqoslanadi. Manzarada, masalan, quyosh nuri bilan yoritilgan yashil yalanglik eng yorug' va rang bo'yicha yoriin bo'lishi, to'i tusda esa old ko'rinish.

Manzaraning umumiy rang munosabatlarini topish maqsadida talaba vazifani etarli darajada savodli uddalay olmasa qisqa vaqtli etyudlarni ko'p marta takrorlash zarur. Dastlab tasvirlash uchun uncha murakkab bo'lmagan yopiq kenglikli syujetlar (masalan, qisman hovlilil uyni va h.k.), obektlar bo'lib hizmat qilishi mumkin. Keyin vazifani biroz murakkablashtirib, bir nechta ko'rinishga (old, o'rta va uzoq) ega bo'lgan ochiq kenglikdagi manzarani tanlash zarur. Bu etyudlarda esa e'tiborni havoiiy perspektivaga, osmon rangi, manzaraning barcha ob'ektlarini nozik farqlari bo'yicha och-to'qligi va to'yingan ranglarining

o'zgarishlariga qaratish kerak. Ularni baravar idrok qilishda manzarani barcha ko'rinishlarini taqqoslash yo'li bilan sezish mumkin. Masalan, old ko'rinishdagi daryo qirg'og'ini ikkinchi va yiroqdagi ko'rinishlari bilan bir vaqt o'zida osmonning suvdagi aksi bilan ham qiyoslanadi. Etyudning rangdor munosabatlari yaxlit belgilanmaguncha uning bir qismini tugatish mumkin emas. ʼar bir etyud 30 daqiqadan 1 soatgacha davom etadi.

### ***Yoritilishning umumiy va rangli holati***

Manzara etyudida echiladigan muhim vazifa-turli ob-havoda, kunning istagan vaqtini... yoritilgan holatini tasvirlashdir. Professional tilda buni umumiy tus va rang holatini ko'rsatishga aytiladi. Xoxlagan etyudning rang qatori faqat narsalarning ranglaridagi tus va rang munosabatlariga mos bo'lmasligi kerak. Etyudning rang farqlari albatta naturaning yoritilgan holatini hisobga olib qurilishi kerak.

Bulutli kunda ko'katlar rangi ancha quyuq (qoramtir) va kam to'yingan bo'ladi. Qosh qorayganda hamma narsalar to'ilashadi, qizil, zarg'aldoi va sarig' ranglar to'yinganligi jihatidan xiralashadi, yashil bilan zangori rang esa faollashadi. Shuning uchun bunday holatlarni hisobga olmasdan manzarani tasvirlab bo'lmaydi. Kunning istalgan vaqtida yoki turli ob-havo sharoitida tasvirlangan etyudlar, umumiy tus va rang jixatdan bir-biridan farq qilishi lozim.

«Manzarada – deydi R.Falk, - asosiysi - havoii muhitning rangli holatidir».

Manzara ko'rinishlarini yuqori yoki past darajada yoritilgan holatini tasvirlash uchun to'liq diapazonli och-to'q, yorqin va qoramtir bo'yoqlardan rassom har doim ham foydalana olmaydi. Ishni boshlashdan oldin rassom etyudda naturaning eng yorqin va intensiv qismlarini qanchalik yorug' va rang kuchlariga ega ekanligini aniqlaydi. Quyoshli kunda etyud bajarishda palitradagi yorqin va jozibali diapazonini to'liq ishlatadi. Kechqurin yoki bulutli kunda etyuddagi rang munosabatlari to'groq va kam to'yingan bo'yoqlar bilan ifodalanadi. Rangtasvirchi shunday qilib tus va rang ko'lamini saqlab qoladi. Masalan, I.Repinning «Kursk guberniyasida cherkov namoyishi» kartinasida ranglar



nihoyatda jozibali. U asarda quyosh nurini sezdira olgan. Uning «Targ'ibotchini hibsga olinishi» kartinasi qoramtir va quyuc bo'yoqlar bilan tasvirlangan.

Manzara etyudining yoritilishi holatini puxta o'rganish uchun bulutli, quyoshli kunda... yoz va qishda aynan bir mavzuni tasvirlash juda foydali. Qator bajarilgan etyudlarni solishtirib, manzaraning turli holatini jozibali xususiyatlarini sezish mumkin: barcha etyudlarda eng yorqin va ravshan dog'lar palitraning yorqin to'yingan bo'yoqlarida tasvirlangan.

### ***Manzara ob'ektlarida kolorit birligi va yoritilish rangi***

Manzarani munosabatlar metodi bilan tasvirlash jarayonida yosh rassom tabiatning haqiqiy bo'yoqlarini tushunishga ularning asl rangini umumiy tusi bilan mosligini ko'rishga birdaniga erishmaydi. Tabiatdagi bo'yoqlarni noto'g'ri tahlil etish natijasida rassom rang va tus munosabatlarini adashtirib etyudni jozibali chiiishiga erisha olmaydi. Ayniqsa tajribasiz rassom yoritilishning umumiy rangi ta'sirida tabiatdagi o'zgargan ranglarni yaxshi sezmaydi.

Ertalabki quyosh barcha narsalarga va manzara ob'ektlariga pushti – sariq nozik rangni, kunduzgi quyosh esa - oltinsimon, kechqurungisi – to'q sariq yoki qizil rangni baxsh etadi. Tungi oy yorug'ligi narsalar rangini ko'kimtir yashil tomonga o'zartiradi. Elektr chirog'ida narsalar och-to'q sariqni, sham esa – to'q sariq bo'yoqni xadya etadi. Demak, yoritilishning o'zgaruvchan sharoitida narsalar rangi yoritilish manbai ta'sirida bo'ladi.

Yoppasiga bulutlar quyuni bilan qoplanib yorug'ligi tarqatilgan osmonda narsaning shaxsiy rangi – ko'proq namoyon bo'ladi. Bulutli kunning engil tekis yorug'ligi narsalarning shaxsiy ranglaridagi xarakter va xususiyatlarini aniqlashga imkon tug'diradi.

Manzaraning turli yoritilgan holatdagi etyudlarni bajarish uchun bulutsiz quyoshli kun, bulutli osmondagi quyosh yorug'ligi, kunbotar wait, bulutli kun, qosh-qoraygan paytlarni tanlash mumkin.

Bunday yoritilgan sharoitlarda mashqlarni bajara turib barcha e'tiborni tabiatdagi umumiy tus va rang holatini o'zgarishlariga qaratish lozim. Manzara etyudlarida tus va rang yaxlitligi va birligini yo'qligi ranglarning maydalanishiga

va pala-partishlikka yo'l io'yilishi ishni sifatini buzadi. Bunday etyud ifodali bo'la olmaydi va tomoshabinga nozik ta'sir etmaydi. M.A.Vrubelning «Nastarin» va I.N.Kramskoyning «Oydin kecha» mavzuidagi asarlari rang jozibasi bilan, hamda asarning yaxlit topilishi bilan tomoshabinni o'ziga maftun eta oladi.

### ***Manzarada mayda bo'laklarni tasvirlash***

Mazmun jihatdan ancha murakkab va uzoq davomli manzara etyudlarini ishlashga o'tishdan oldin... naturaning umumiy ranglar munosabatini tasvirlashga qisqa vaqtli etyudlarni bajarish bilan, masalan, arralangan daraxt tanasining bir bo'lagi yoki bir necha toshlar, osmondagi bulutlar to'plami kabilarni ishlash zarur.

Ranglar dog'i o'z-o'zidan narsa yoki ob'ektning aniq shakllarisiz bezakli tasvirdan boshqa hech narsani ifodalamaydi.

«Tabiatni to'laqonli tasvirlash va uning go'zalligini ko'rsatish uchun – deydi T.Russo - daraxtlar erda mustahkam turishi, ularning shoxlari esa oldinga intilishi iolgan iismi polotno ichiga kirib ketgandek tuyulishi, xuddi tomoshabin daraxtni atrofida aylanib o'ta oladiganday tasavvur qilishi kerak. Xar bir bo'yoq surtmasi shunchaki yuzaki qo'yilmasdan, xar bir surtma yaxlit bo'lishi va biron-bir narsani anii ifodalashi kerak».

Etyudda aniq ob'ektlarni tasvirlash ishi naturadagi manzara va muhit detallaridagi asosiy rang munosabatlarini aniqlashdan boshlanadi. Keyin esa ob'ekt shakli, uning hajmi va x.k. astoydil ishlab chiqiladi. Bularning hammasi yoritilishni umumiy kolorit holatini to'g'ri hisobga olib rang bilan hal qilinadi.

Manzarani tasvirlashda tabiatni sinchiklab o'rganishni talab qiladi. Ƴar bir daraxt alohida o'zining xarakterli tuzilishiga ega.

Tabiatni turli holatlarda, ko'katlar bilan butalar, har xil daraxt turlarini xarakterli xususiyatlarini rang bilan tasvirlashni o'rganish uchun naturadan juda ko'p etyudlar bajarish kerak. Manzaraning obektlarini bo'yoqlar orqali tasvirlash bilan barobarida qalam bilan ularning murakkab shaklini chizish ham zarur.

Manzarani alohida obektlarini va mayda bo'lak ishlanmalariga qaratilgan mashqlarni bajarish bilan bir qatorda ochiq havoda qator natyurmortlar bajarilsa

yaxshi bo'ladi. Plenerda (quyoshda, soyada va x,k.) yoritilish sharoitiga iarab natyurmortni joylashtirib, iator mashqlarni bajarish maisadga muvofiidir.

Daraxt soyasiga qo'yilgan natyurmort osmon va daraxt yaproqlari reflekslari ta'sirida o'zgacha ko'rinadi.

Yashil yaproqlar va ko'k osmon – bu ikki rang natyurmortning barcha ranglar qatorini belgilaydi. Bunday natyurmortga misol tariqasida A.A.Plastovning «Yoz» kartinasini ko'rish mumkin. Daraxt soyasida qiz bilan ayol tasvirlangan. Osmondan kumushsimon sovuq rang... soyalari esa yashilroq ranglarga ega.

Ko'pgina aks va shu'lalar mavjudligi tufayli bulutli ob-havoda yorug'-soyalar o'z kontrastligini yo'qotadi va engil tashqi ko'rinishlari va yumshoq soyalari bilan fazoviy muhitni yaratadi.

Shakllarni modellashtirish shunday amalga oshiriladiki, har bir narsa hajmini va materialligini umumiy yoritilish va muhit ta'siri natijasida paydo bo'lgan nozik ranglar bilan ko'rsatiladi.

Bulutli ob-havoda koloritni xarakterli holatini A.A.Plastovning «O'rim» kartinasining natyurmort qismida ko'rish mumkin. Kartinadagi voqea bulutlar bilan qoplangan tush vaqtida sodir bo'lgan. Natyurmortdagi narsalarning yorug'-soyasi bir-biridan kam farqlanadi. Kechki yoritilish holatidagi natyurmort rangtasviri misolida rassomni boshqa «Traktorchilarni kechki ovqati» asarida ko'rish mumkin. Narsalarning yoritilgan qismi qizil...to'q sariq ranglar bilan, soyalari esa quyuk to'i ranglarda tasvirlangan. Kartinada keskin ranglar gammasi o'yini yaratilgan bo'lib, asar nihoyatda jozibali yaratilgan.

#### **2.4. Moybo'yoqda ishlash texnologiyasi.**

Quyida biz moybo'yoqrangtasvirida zarur bo'ladigan materiallar va asboblarni haqida to'xtalib o'tamiz. Bundan oldin esa moybo'yoqrangtasviri ustida ish boshlash uchun zarur bo'lgan asosiy vositalarning ro'yxatini keltirib o'tamiz.

Bo'yoqlar. Rangtasvir ustida ish boshlaganda oldin «o'quv eskizlari uchun» ishlatiladigan bo'yoqlar, keyinchalik esa «badiiy bo'yoqlar»ni ishlatgan ma'qul.

Bo`yoqlar o`rtacha o`lchamdagi tyubiklarda bo`lgani yaxshi, oq bo`yoqni esa katta tyubikdagisini sotib oling. Yaxshisi bo`yoqlarni bo`lak tyubiklarda sotib olgan ma`qul. Ularni uzunchoq yog`och qutilarda saqlash kerak.

Mo`yqalamlar. San`atning bu turi uchun mo`yqalamlar xuddi bo`yoqlar singari juda zarur. Shuning uchun ham mo`yqalamlarni to`liq to`plamda sotib olgan ma`qul. Eng yaxshisi har qaysi nomerdan (№2 dan 20 gacha) 3 tadan mo`yqalam sotib oling.

Asosan quyidagi mo`yqalamlardan foydalaniladi.

Qattiq mo`yli mo`yqalamlar

Qattiq mo`ydan tayyorlangan mo`yqalamlar.

Katta to`plam: har bir yalpoq va to`g`ri shakldagi mo`yqalamlardan bittadan olinadi.

Kichik to`plam: №2 dan 12 gacha bo`lgan uchli shakldagi mo`yqalamlardan bittadan olinadi.

Sigir qilidan tayyorlanadigan mo`yqalamlar.

Bu mo`yqalamlar yumshoq bo`lib, detallarni ishlashda va lessirovka qilishda qo`l keladi. Shakli qattiq qildan tayyorlangan mo`yqalamlarga o`xshaydi.

Ayiq mo`ylaridan tayyorlangan mo`yqalamlar.

Bu mo`yqalamlarni ham yuqoridagi tartibda olish kerak bo`ladi.

Palitralar

Palitra uchun yog`och faneralar ishlatiladi. Lekin undan ham qulay va arzon tushadigani bu chetki qirralari tekislangan shisha hisoblanadi. Har kim o`zi uchun qulay bo`lgan shaklda palitra qirqib olishi mumkin. (ilovaga qarang).

Mol`bertlar va boshqa narsalar. Ishni endi boshlayotganlar uchun mol`bert kerak bo`lmaydi, uning o`rniga etyudnik yoki kichik mol`bertlardan foydalanish mumkin. Unda kichikroq va o`rta o`lchamdagi kartinalarni ishlasa bo`ladi. Zarur bo`lgan boshqa predmetlar masalan: qog`oz, sellofan plyonka, eski lattalar, bo`sh qattiq yopiladigan bankalar va butilkalarni ham ishlatamiz.

Gruntlar. Eng avvalo ishni maxsus magazinlarda sotiladigan tayyor gruntlangan kartonda boshlash mumkin. Bu kartonlar turli formatlarda ishlab chiqariladi. Keyinroq esa gruntni o'zingiz tayyorlab ishlay boshlaysiz.

Bu xaqda biz keyingi bo'limlarda kengroq to'xtalamiz.

Moybo'yoqlarning tarkibi va o'ziga xos xususiyatlari

Oq bo'yoqlar

Ruxli oq bo'yoq

Bu oq bo'yoq elektrolitik vositasi yordamida ruxdan olinadi. Oq bo'yoq o'z tarkibiga ko'ra rux oksidi ( $ZnO$ ) dan iborat. Uning bog'lovchisi yong'oq va zig'ir moylarining aralashmasi hisoblanadi. Ruhli oq bo'yoqning xarakterli xususiyatlari shundan iborat:

A) ular sekin quriydi.

B) o'rtacha qoplovchilik xususiyatiga ega.

V) bo'yoqlar aralashmasini mustahkamligini yaxshilaydi

Yorug'lik ta'sirida ruxli belila o'zining oqligini yo'qotmaydi; Qorong'ida sarg'ayadi, lekin yorug'lik ta'sirida asta-sekin o'z oqligiga qaytadi.

Ruxli oq bo'yoqlarni sanoatda ishlab chiqarish 1849 yilga to'g'ri keladi, xuddi shu yili rangtasvirda qo'llanila boshlagan.

Qo'rg'oshinli oq bo'yoq

Qo'rg'oshinli oq bo'yoq qo'rg'oshin sul'fat asosida tayyorlanadi. Qo'rg'oshinli ok bo'yoqlar uchun yong'ok va zig'ir moylarining aralashmasi bog'lovchi hisoblanadi.

Qo'rg'oshinli oq bo'yoq ruxli oq bo'yoqqa nisbatan oq emas, undan issiq tondagi ranglar olsa bo'ladi.

Qo'rg'oshinli oq bo'yoqning o'ziga xos xususiyatlari shundan iborat:

A) ular ruxli belilaga nisbatan, yopishqoq pasta hosil qiladi.

B) ruxli belilaga nisbatan tezroq quriydi, boshqa bo'yoqlarga aralashtirilsa ularni ham tez quritadi.

V) mustahkam qoplovchilik va yaxshi adgeziyaga ega.

G) zaharli bo'yoqlar qatoriga kiradi.

U yorug`likka chidamli. Vodorod sulfid va sulfat gazlari ta'sirida rangi o`zgaradi.

Qo`rg`oshinli belila ilk o`rta asrlar davridan boshlab ishlatiladi.

Moybo`yoqlar uchun moylar va suyultirgichlar.

Moybo`qlarning asosiy plenka hosil qiluvchi komponenti ba'zi bir o`simliklarning urug`laridan olinuvchi o`simlik moylari hisoblanadi.

Moylar quriganda qanday plenka hosil qilishiga qarab uch guruxga bo`linadi.

Birinchi guruhni zig`ir turidagi moylar tashkil etadi. Ular juda tez qurib, mustahkam bo`ladi, organik eritgichlarda erimaydi. Bu guruhga: zig`ir, kandir moyi va boshqa moylar kiradi.

Ikkinchi guruhni ko`knori turidagi moylar tashkil etadi. Plenka hosil qilish qobiliyati birinchi guruhga nisbatan pastroq, uzoqvaqtda quriydi. Olingan plenka organik suyultirgichlarda qisman eriydi, qizdirilsa yumshab, erib ketadi.

Uchinchi guruhni zaytun turidagi moylar tashkil etadi.

Bu moylar to`liq qurimaydi.

O`simlik moylari yog` kislotalari (94-98%) ning glitseridlaridan, ozroq miqdordagi to`yingan va to`yinmagan yog` kislotalari (1-2%), yuvilib ketmaydigan vositalardan (0,5-1%) va oqsil modda (0,5%) lardan tashkil topgan.

O`simlik moylarining plenka hosil qilishining asosiy sababi bu ularning tarkibidagi to`yinmagan yog` kislotalarining mavjudligidadir.

Moylarning yog` kislotalari bilan to`yinganlik darajasi, plenka hosil qilish qobiliyatini xarakterlash uning tarkibidagi yod birligi bilan ko`rsatiladi. Moyning yod birligi qancha ko`p bo`lsa, u shuncha tez quriydi.

O`simlik moylarining muhim xususiyatlaridan biri bu uning polimerlash qobiliyatidir.

Polimerlangan moy tez qurish xususiyatiga ega bo`ladi va yaxshi fizik – ximik xususiyatga ega bo`lgan plenka hosil qiladi.

## **2.5. Buxoro me'moriy obidalarining tarixiy voqelikda aks ettirilgan tasvirini bajarish bosqichi. (*Rangtasvir uchun grunt tayyorlash*).**

Grunt xolstning asosi va to`kilgan iplari orasidagi teshiklarni berkitadi, uning sirtini bir xil qilib, unga kerakli rangni beradi.

Grunt xolstni bo`yoq, bog`lovchilar va eritkichlarni surib olishini oldini oladi. U xolst sirtiga yuqori adgeziyalik xususiyatini, ya`ni bo`yoqlarni tutib qolish xususiyatini beradi. Sifatiga ko`ra xolst yumshoq va elastik bo`lishi kerak. Xolst rulon qilib o`ralganda sinmasligi kerak.

Grunt sirti biroz g`adir-budir bo`lishi kerak. Grunt berilganidan so`ng xolst o`zining fakturasini yo`qatmasligi kerak. Xolst uzoq muddat saqlanganda sarg`aymasligi va qoraymasligi kerak. (Xolst qorong`i joyda saqlansa sarg`ayadi.)

#### *Xolstni yelimlash.*

Podramnikka tortilgan xolst gruntlashdan oldin texnik jelatinning 15%li eritmasi yoki baliq yelimi bilan yelimlanadi. Xolst ikki marta yelimlanadi. Birinchisida xolst asosining iplari orasidagi teshiklarni berkitish uchun quyuq va sovuq yelim bilan elimlanadi. Bu yelimni yetik cho`tka bilan surtiladi. Yelimning ortiqchasi metall chizg`ich bilan sidirib olinadi. Buning uchun chizgich o`tkir burchak ostida ushlanib xolst ustida yurgiziladi. Bunda ortiqcha yelimlar olinishi bilan birga, xolstni teshiklari mahkam berkiladi. Oradan 12-15 soat o`tganidan keyin, qurigan xolstning usti penza yoki jilvir qog`oz bilan tekislanadi. Ikkinchi yelimlashda ham xuddi shu yelim suyuq holda ishlatiladi. Bu yelimni suyultirish uchun suv vannasidan foydalaniladi. Xolstni turiga qarab ikki yoki uch marta yelimlanadi. Har bir qatlamni surtish uchun oradan 12 - 15 soatcha vaqt o`tib, xolst qurishi kerak.

#### *Xolst uchun emul'siyali grunt tayyorlash.*

Hozirgi davrda dastgoxli rangtasvir uchun emul'sion grunt ishlatiladi. Grunt tarkibi ruxli oq bo`yoq qo`shilgan yelim moyli emul'siadan iborat bo`ladi. Gruntning plastikligini oshirish uchun glitserin yoki o`simlik moyi qo`shiladi. Grunt da motor hosil bo`lishini oldini olish uchun pentoxlorfenoliat natriy antiseptik sifatida ishlatiladi. Yuqori dispersli yelim moyli emul'siya olishni tezlashtirish uchun OP-7 emul'gatori ishlatiladi. Emul'gator sifatida suvda eritilgan

tuxum sarig`idan ham foydalanish mumkin. Odatda har 10 gr quruq yelimga 2-3 ta tuxum sarig`i qo`shiladi.

Emul'siyali grunt tayyorlash uchun yelimni oldindan suvga solib qo`yiladi, keyin uni 60-70° temperaturada suv vannasida qaynatiladi. Bir vaqtning o`zida ozroq suvga ruxli oq bo`yoq solib namlanadi. Bu oq bo`yoqni emul'siyaga solganda bir joyga to`planib qolishini oldini oladi. Issiq suvda suyultirilib, tayyorlangan yelimga yuqori sifatli zig`ir olifasi qo`shiladi. Olifni qo`shilganda yelimli suv to`xtamasdan aralashtirilib turiladi. Olif oz-ozdan qo`shiladi, aralashma qo`lda aralashtirilsa sifatli emul'siya olish qiyin, shuning uchun ham emul'gator qo`shilsa sifatli emul'siya olish mumkin.

### ***Yelimlar***

Yelimlar yelimli bo`yoqlar tayyorlashda pigmentlarning bog`lovchisi va boshqa narsalarni yelimlash uchun ishlatiladi.

Yelimlar uch guruhga bo`linadi: hayvonlardan, o`simliklardan olingan va sintetik yelimlar.

Hayvonlardan olingan yelimlarga kollagen (glyutin), kazein va al'bumin yelimlar kiradi.

Kollagen yelimlar tayyorlanadigan xom ashyoga qarab suyakli, baliqdan olingan va teri yelimlar bo`ladi. O`simliklardan tayyorlangan yelimlar guruhiga bir qancha dukkakli o`simliklar urug`larining oqsillardan, kraxmal yelim tsellyuloza efiridan tayyorlangan yelimlar kiradi.

Sintetik yelimlar guruhiga sintetik, kondensatsiyalangan va polimerizatsiyalangan smolalarning eritmalardan tayyorlangan yelimlar kiradi. Bulardan eng ko`p tarqalganlari: perxlorvinil, epoksid, kauchukli, pentrotsellyulozali, polivinilatsetat va boshqalardir.

#### **Kazein yelimi**

Kazein hayvonlar suti tarkibidagi oqsil birikma hisoblanadi. Sigir sutida kazein 3,5%gacha bo`ladi. Kazein yog`sizlantirilgan sutdan olinadi.

Kazein yaxshilab aralashtirilib, siqiladi va 80° temperaturadan yuqori bo`lmagan holatda quritiladi. Yelim tayyorlash uchun ishlab chiqiladigan kazein



kukuni tarkibida kanifol, suyuq shisha va antiseptik bo`ladi. Kukun suvga solinib, bir xil massa hosil bo`lguncha yaxshilab aralashtiriladi. Buning uchun bir hajm kukunga, ikki hajm suv solib aralashtiriladi.

### ***Moyli bo`yoqlarning rangtasvirida qo`llanilishi va turli texnikasi***

1. *Pastasimon, qoplovchi bo`yoqlar.*
2. *"Alla prima" usuli.*
3. *Shaffof lessirovkalik xususiyatiga ega bo`lgan bo`yoqlar.*
4. *Lessirovka va rangtasvirning lessirovka texnikasi.*

### ***Moybo`yoq rangtasvirining nuqsonlari va ularni tuzatish***

Pastasimon, qoplovchi bo`yoqlar.

Pastasimon bo`yoq - bu quyuq, oqib ketmaydigan rangli bo`yoq. Tabiatan ko`pchilik pigmentlar qoplovchilik xususiyatiga ega bo`lib, u yorug`likni yutib, refleks beradi. Yorug`lik ularga tushganda yorug`lanib ketmaydi.

Qo`llanilish vositasi:

Ishlatiladigan bo`yoqlar, quyuqlashmaguncha palitrada yotishi kerak.

Judayam oz, kerak miqdordagi bog`lovchi vositalar, katta miqdordagi pigmentga aralashtirilib ishlanadi.

Bog`lovchi vositalarni qo`shish: bog`lovchi vositalarni quyultirish zarur. Bo`yoq ka moy qo`shiladi . Bo`yoq ni moy bilan aralashtirishda extiyot bulish lozim. Judayam ko`p bo`yoq qo`shib yubormaslik kerak. Aks holda xira, kir, bir hil bo`yoq hosil bo`ladi.

Pastasimon bo`yoqlar bilan ishlashda bo`yoq ni juda quyuq olmaslik kerak, chunki bunda rangni bir hil bo`lgan "bo`tqa" hosil bo`ladi. Buni keyin tuzatib bo`lmaydi. Mo`yqalamni esa tez-tez tozalab turish kerak. Bir-biriga yaqin tonlarni to`g`ri kartina sirtida arlashtirib topish mumkin. Lekin bunda ham shoshilmasdan va toza ishlash kerak. Pastasimon bo`yoqlar bilan ishlaganda bo`yoqlar "dog`" qilib qo`yiladi. Yorug`likni yoki qorong`ulikni ko`rsatishda to`g`ridan-to`g`ri oq yoki qora bo`yoq bilan ishlash mumkin. Lekin toza qo`rg`oshinli bo`yoq yoki qoplovchi oq bo`yoq ishlatilmaydi, ularning rangi xiralashadi.

Bo`yoqlarni to`qlashtirish, qorong`ulikni ko`rsatish uchun faqat qora bo`yoqlardagina emas, balki qo`shimcha ranglardan ham foydalanish mumkin. Masalan, ultramaringa oz miqdorda yashil xrom oqisi, kraplak yoki umbrani qo`shish mumkin. Shunday qilib, chuqur, rangli shu bilan birga aniq to`q rangli tonlar hosil bo`ladi.

### *"Alla prima" rangtasviri*

"Alla prima" tushunchasi lotin tilidagi "alla prima vizta" so`zidan olingan bo`lib, "bir qarashda" ma`nosini beradi va pastasimon bo`yoq bilan qisqa vaqtda ishlashni bildiradi. Bunda kartina bir seansdayoq tayyor bo`ladi. Buning uchun rassomning o`ziga ishonchi kuchli va bo`yoqlar bilan ishlashda tajriba bo`lishi kerak. Bo`yoqlar asosan palitrada aralashtiriladi, bunda yorqin va toza ranglarni topish mumkin. Bu plener sharoitida ishlash uchun juda qulay uslub. Bo`yoqlar qattiq mo`yli mo`yqalamlar bilan qo`yiladi. Polotna sifatida ko`pol to`qilgan xolst yoki kartondan ham foydalanish mumkin. "Alla prima" uslubida tipik kompaktli va relefsimon tarkibni yaratish mumkin. Uni chetlari yoki konturlarini bemaolol sidirib olib, tekislash va qo`shib yuborish mumkin. Buning uchun sigir kilidan yasalgan quruq va yumshoq mo`yqalamlardan foydalanish mumkin. Rang va konturlarning chetlarini shunday qilib yumshoq va yengil kirishib ketuvchi qilish mumkin. Bu usul shuningdek "sfumato" (yoyilgan kontur) deb yuritiladi. Shpatel bilan ishlash texnikasi Shpatel bilan ishlash texnikasi "alla prima" rangtasvirining bir varianti hisoblanadi. Oldin monoxrom ranglar bilan kartinaning asosiy strukturasi qo`yiladi, keyin esa elastik mastixin yordamida pasta usuli bilan rang qo`yiladi. Oq releflardan farqli ravishda bu yerga bir oz qurigan yuzaga yorug`lik bliki qo`yiladi. Shaffof, lessirovkalik xususiyatiga ega bo`lgan bo`yoqlar Ba`zi bo`yoqlar shaffof bo`yoqlar hisoblanadi. Bo`larga ultramarin, karmin-qizil, yorqin-yashil, asfalt va xakozolar kiradi. Bu bo`yoqlar yorug`likni o`tkazib yuboradi. Shuningdek ularni lessirovka bo`yoqlar va shaffofligiga qarab esa yarim lessirovkalik yoki yarim qoplovchi bo`yoqlar deyiladi.

Qoplovchi va yarim qoplovchi bo`yoqlarning texnik va rangtasvir imkoniyatlari ham shaffoflikni bera oladi. 1:1 yoki 1:2 miqdorda moy bo`yoqlarni

yarim moyli eritgichlar bilan eritish. Bu bo`yoqlarni juda kam miqdorda va juda yupka qatlamda shaffof qilib berishga imkoniyat yaratadi. Shaffof pastani moy bo`yoq ka aralashtirish.

Unda qo`shilgan massa bo`yoq hajmidan oshib ketmasligi kerak, chunki bunda bo`yoq qatlamning bog`lovchilik xususiyati pasayadi. Shaffof moy bo`yoqlar sigir kilidan tayyorlangan yumshoq mo`yqalamlar bilan qo`yiladi. Shunda "alla prima" rangtasvir texnikasiga o`xshash ko`pol tarkib paydo bo`lmaydi.

Shaffof bo`yoqlar bilan ishlangan kartina, lessirovka texnikasida bajarilgan ish hisoblanadi.

### ***Lessirovka va rangtasvirning lessirovka texnikasi***

Lessirovka texnikasida ishlash jarayoni juda zerikarli bo`lib, u ko`p vaqt va chidamni talab etadi. Eng avvalo bunda tiniq tasavvur va yaratilajak tasvirning fikriy obrazi juda zarur bo`ladi. Kartina monoxrom usulida ko`riladi. Lessirovka texnikasida ishlangan rangtasvir, xuddi shaffof suvli kulning tubini ko`rgandek asosi va chuqurligigacha ko`rinadi. Ishning birinchi bosqichi tugaganidan so`ng rasm lessirovka bo`yoqlari bilan qoplanadi. Kartinaga keyingi qatlam ranglari, oldingi ranglar hech bo`lmaganda yarmigacha quriganidan so`ng qo`yilishi lozim.

Ko`p qatlamli rangtasvir. Rangtasvirda eng ko`p tarqalgan usullardan biri bu ko`p qatlamli rangtasvir hisoblanadi. Ko`pincha kartinani bir seansdayoq tugatib bo`lmaydi. Kartina eskizga va tugamagan ishga o`xshab qoladi. Rassomda uni qaytadan ishlash istagi paydo bo`ladi. Shunday qilib, ishning bo`lak, turli bosqichlari paydo bo`ladi. Rassom ishni tugatmaydi va uni "ochiq" qoldiradi. Ko`p qatlamli rangtasvirda yuqorida aytib o`tilgan usul va kombinatsiyalarning barchasi qo`llaniladi. Aniqroq qilib aytganda, kartinani boshlab, keyin uni tugatdim deyish noto`g`ri bo`ladi. Ko`p qatlamli rangtasvir texnikasining ish jarayonida juda ko`p yangi usullar paydo bo`lishi mumkin. Bunda xattoqi ishni tugatishga ko`ra ushbu texnikani qo`llashni o`zi ham juda muhim bo`lib qoladi. Kartina ustida ishlash hamma vaqt "ochiq" bo`lib qolishi va "tugamagan" ish bo`lib tuyulmasligi

kerak. Shu nuqtai nazardan qaraganda bajarilgan ishning amaliy tomonlariga emas, balki uning badiiy mezonlariga e'tibor berish lozim.

Moybo'yoq rangtasvirining nuqsonlari va ularni tuzatish. Rangtasvir asarining koloritik imkoniyatlari va kartinaning uzoq vaqt saqlanishi faqatgina ishlatiladigan materiallarning sifatigagina bog'liq emas, balki rangtasvir texnologiyasining to'g'ri tanlanganiga ham bog'liq bo'ladi. Rangtasvir asarlarida uchrab turadigan nuqsonlar ko'pincha rassomning rangtasvir texnikasini to'g'ri bilmasligidan yoki past sifatli gruntdan ham kelib chiqishi mumkin.

### **III. XULOSA. Tarixiy voqelikda Buxoro arxitektura obidalarini rangtasvirda aks ettirish mavzusida yozilgan kartina orqali yoshlarni ona yurtiga bo'lgan tarbiyaviy g'oyalarni singdirish.**

Tasviriy faoliyatning nazariyasini muntazam o'rganish, tasviriy san'at ta'limini muvaffaqiyatli o'zlashtirishning asosiy shartlaridandir. Rangtasvir qonun-qoidalarini puxta egallagan talabagina amaliy ijodda samarali shug'ullanishi mumkin. «Kimda-kim ilmni amaliyotsiz tasavvur etsa, - u bamisoli suzishga eshkaksiz chiqayotgan qayiq haydovchisidir va u hech qachon qaerga ketayotganligiga to'la ishonch hosil qila olmaydi deya ta'kidlagan Leonardo da Vinchi. Ayniqsa tasviriy san'atda amaliyot hamisha kuchli nazariyot bilan bog'liq

Rus rassomi va pedagogi D.N.Kardovskiy aytib o'tganidek: «San'atni o'rganayotganlar tasvirlashni yo'llari va usullari, ya'ni narsalarni shakli, nisbatlari, rangi, yorug'ligi, xususiyati, harakat va perespektiva qonuniyatlariga bo'ysunishga majburdirlar».

Tasviriy san'atda, borliqni aks ettirish o'z-o'zidan paydo bo'lmadi. U inson paydo bo'lganidan buyon shakllanib taraqqiy etib kelmoqda. O'rta asrga kelib o'zining eng yuqori cho'qqisini namoyon qildi. Evropa bu borada dynuo svilizatsiyasiga o'ziga xos o'ringa ega. Zamonasining eng buyuk tasviriy san'at arboblarni etishtirib berdi va shularning mehnati natijasida shakllandi.

Bitiruv malakaviy ishi yakunida shuni xulosa qilib aytish mumkinki, biz kelajakda yosh avlodni ta'lim - tarbiya beishida, tasviriy san'at orqali tabiatga, atrof-muhitga va predmetlarga bo'lgan qarashi, tasavvuri va umumiy dunyoqarashini shakllantirishda sababchi bo'ladigan pedagog kadrlar bo'lib yetishib chiqishimiz shartdir . Shunday ekan biz o'z sohamaiz ustida bundan keyin ham ko'plab izlanishlar olib borishimiz va o'quvchilarni to'g'ri bilimlarga ega bo'lishlari uchun qo'limizdan kelganicha harakat qilishimiz lozim bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ishimda birinchi bobda:

Qadimiy Buxoro tarixiy obidalarini tarixidan lavhalar, obidalarini haqida umumiy ma'lumot, rang tasvirda manzara kompozitsiyasining ahamiyati haqidagi ma'lumotlar keltirildi. O'z o'rnida tasvirni rangtasvirda chizilishi, qurilishi va tasvirlanish yo'llari yoritildi.

Ikkinchi bobni rassomlar ijodida Buxoro manzarasi, ishlash jarayonining borishi; eskiz, qoralama va ranglavhalar to'g'ri tasvirlashni o'rgatish yo'llari nomlanib, o'quvchilarga rasmni qurishda perspektiva qoidalarini his qilish va to'g'ri tasvirlashga o'rgatish yo'llarini to'rtta bo'limlarda yoritib berilgan. bitiruv malakaviy ishini amaliy ishi sifatida Tarixiy voqelikda Buxoro arxitektura obidalarini aks ettirishni tanlab oldim va amalda bajardim.

Amaliy ishni bajarishda ilmiy rahbarimning va mutaxasis ustozlarimning maslahatlariga tayandim. Manzaradagi barcha narsalarning bir-biriga ranggini urishi, ranglarning umumlashuvi, kontrast joylar va detallashtirishlarga e'tibor bergan holda ishni yakunladim. Darvoqe, barchaning e'tirofiga sazovor bo'lgan juda ko'p niyatlar bilan ulkan tarixga va madaniyatga ega bo'lgan xalqimizni eng yaxshi taqdirga munosib ekanligini his etamiz va bobolar orzularini amalga oshishi uchun bilim berish borasida kuchimizni sarflaymiz.

Shu bois ham men himoyaga tavsiya qilayotgan mavzu ham nazariy jihatdan, ham amaliy jihatdan aynan Vatanni sevish, yurtni ardoqlash kabi xususiyatlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Shular yuzasidan "Tarixiy voqelikda Buxoro arxitektura obidalarini rang-tasvirda aks ettirish" mavzusida malakaviy ishni

bajarishga harakat qildim. Har bir bajargan ishimda kichik-katta qoramalar, ranglavhalar faqat yurak qo'ri, shukhi bilan sug'orishni ta'minlashga qaratdim.

Kelgusida bu ishni maktabda sinfdan tashqari ishlarda va kecha yoki tadbirlar o'tkazishda qo'llashni nazarda tutdim.

Mening nazarimda bitiruv malakaviy ish orqali o'quvchilarda ona shahringa bo'lgan mehr va muhabbatni uyg'ota olaman degan umiddaman. Ularni Ona yurti sevisiga va ota-bobolarimiz qo'li bilan yaratilgan ulkan merosni asrab-avaylashga chorlayman.


Maqsadim o'quvchilarga bilim berishning samarali jihatlarini mukammal o'zlashtirishdir. Kelajakda o'z bilim va ko'nikmalarimdan unumli foydalanib yosh avlodni tasviriy san'at turlarini o'rgatishga, yanada rivojlanishiga o'z hissamni qo'shaman.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. N.Abdullaev. «San'at tarixi». I-II tom. Toshkent. 2001-2002 y
2. Azimova. B. Natyurmort tuzish metodikasi. T. 1984 yil.
3. Amanullayev. A. Xomaki tasvirlar. Nam. 1992 yil.
4. Nabiyeu. M. Rangshunoslik va Rangtasvir asoslari. T. 1995 yil.
5. Normatov N. Kamalak yashaydigan uy. Xujjatli qissa T., «Yulduzcha», 1990 yil.
6. Rostovsev N Akademik qalamtasvir M. 1978 yil
7. Umarov A, Axmedov M. Tasviriy san'at atamalarinig izohli lug'ati. T., «O'qituvchi» 1997 yil
8. Hasanov. R. Narsani o'ziga qarab rasm chizish. T. 1969 yil
9. R. Xasanov. «Tasviriy san'at asoslari». Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot uyi. 2009.
10. Umarov A., Axmedov M. Tasviriy san'at atamalarining izohli lug'ati. «Toshkent». O'zTSMU 1998.
11. Karimov X. U. Tansiqboyev. Toshkent. Yosh gvardiya. 1978.
12. Karimov X. tabiat kuychisi (U. Tansikboev). Toshkent G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1970 y.
13. R. Xasanov. tasviriy san'atni o'qitish metodikasidan Amaliy mashg'ulotlar. Toshkent 2006.
14. N. U. Abdullayev. "San'at tarixi". -Toshkent, "O'qituvchi". 1986.
15. R. Hasanov. "Maktabda tasviriy san'at o'qitish metodikasi" Toshkent. - "Fan". 2004.
16. X. Egamov. Bo'yoqlar bilan ishlash. -Toshkent. "O'qituvchi" 1981.
17. R. Xasanov «Tasviriy san'at asoslari». G'.G'ulom nomidagi nashriyoti. Toshkent. 2009 yil
18. X. Karimov "Ural Tansiqboev" "Yosh gvardiya" Toshkent. 1978 y.

## **ILOVALAR**





Akvarelda ishlangan etyudlar






Akvarelda ishlangan etyudlar (Chorminor)






1-BOSQICH




2-BOSQICH





3-BOSQICH



4-BOSQICH

